

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 66 (1127), 2024-yil 3-aprel, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## MEHNAT MIGRATSİYASI JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga migratsiyani tartibga solish va mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan takliflar taqdimot qilindi.

Butun dunyoda ishchi kuchi ko‘chib yurishi tabiiy jarayon. Mamlakatimizda bunday fuqarolarni chet elga tartibli va xavfsiz jo‘natish bo‘yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Oxirgi ikki yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 70 ming kishi rivojlangan davlatlarga yuborilgan.

Lekin ayrim fuqarolar malaka talab qilmaydigan faoliyat bilan shug‘ullanish uchun chet o‘lkalarga o‘zlarini ham mustaqil ravishda ketyapti. Ularning mehnat va yashash sharoitlari, kasbi, daromadi turlicha.

Davlatimiz rahbari sohada fuqarolarga qulayliklar yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytgan shaxslarning bandligini ta‘minlash vazifalarini qo‘ygan edi. Shu bois, mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Unga ko‘ra, Bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi davlat muassasasi shaklida boshqaruv organiga aylandi. Agentlik direktori bir vaqtning o‘zida Bandlik vaziri o‘rinbosari bo‘ladi. U Mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini ham boshqaradi.

Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Vengriya, Yaponiyadagi elchixonona va konsulliklarda mehnat migratsiyasi bo‘yicha attashe, Saudiya Arabistonida agentlik vakili lavozimi joriy qilinadi. Xorijdagi fuqarolarimiz masalalarini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar va tegishli vazirliklarda 24 soat ishlaydigan koll-markazlar tashkil etiladi.

“Xorijga ish — mahalladan” tamoyili yo‘lga qo‘yiladi. Bunda, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi xorijda ishlab istagida bo‘lgan fuqaroni aniqlab, “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi.

Kasbiy malakasi yo‘q va tilni bilmaydigan fuqarolarni kasbga o‘qitish va profita‘lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarni xorijiy tillarga o‘rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi ochiladi.

Xorijda ishlab istagida bo‘lganlar muayyan xarajatlar ham duch keladi. Shu bois, endi migrantlarning ishchi viza, yo‘l chiptasi, xorijiy til va kasb bo‘yicha malakani baholash xarajatlari qisman qoplanadi. Chet tili bo‘yicha xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikat olgan fuqaroga til o‘rganish uchun sarflagan xarajati 50 foizi qoplab beriladi.

Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarning bandligiga ko‘maklashish ham muhim masala. Shu bois, Sayxunobod tajribasi asosida ularga tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olish uchun moliyaviy ko‘mak beriladi hamda boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko‘rsatiladi. “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturiga muvofiq imtiyozli kreditlar ajratiladi. Tibbiy muassasalar migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a‘zolarini bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazadi. “Inson” markazlari tomonidan ota-onasi xorijda mehnat qilayotgan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

Mehnat migratsiyasidan qaytganlarni ishga olgan korxonaga har bir xodim uchun bir yil davomida Bandalikka ko‘maklashish jamg‘armasidan oyiga 500 ming so‘m subsidiya beriladi. Ushbu tadbirlarga bu yil uchun barcha manbadan 100 milliard so‘m ajratiladi.

Davlatimiz rahbari bu tizimini samarali yo‘lga qo‘yib, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish, bandlikni oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

## YO‘L QURILISHI BO‘YICHA REJALAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev avtomobil yo‘llari qurilishiga oid rejalar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xalqaro va mahalliy yo‘llar tarmog‘ini rivojlantirish, transportlar harakatiga qulaylik yaratish maqsadida ko‘plov loyihalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Sement-beton qoplama ichki yo‘llarni qurish” loyihasi ko‘zda tutilgan. Loyiha doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 86 ta tumanda, 770 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladigan 272 ta mahalladagi 841 kilometr yo‘llar sement-beton qoplama bilan yangidan quriladi. Bunga Osiyo taraqqiyot bankingning 240 million dollarlik qarzi mablag‘i yo‘naltiriladi.

Qurilish hamda texnik nazorat ishlarini mahalliy pudratichlar — xususiy tadbirkorlar va mahalliy muhandislar tomonidan amalga oshiriladi. Yo‘llar foydalanishga qabul qilinganidan so‘ng, bosh pudratchi tomonidan 5 yil davomida kafolati soz holatida saqlanadi va ekspluatatsiya qilinadi.

Yana bir loyiha xalqaro ahamiyatdagi M39 “Olmota — Bishkek — Toshkent — Shahrisabz — Termiz” magistral avtomobil yo‘lining 1255-1315 kilometrini rekonstruksiya qilishga qaratilgan. Yo‘lning bu qismi Dehqonobod tumani markazi Qorashtina shaharchasidan o‘tgan bo‘lib, hozirgi kunda tor va ta‘mirlalab.

O‘ZA

## PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

## ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMI RIVOJLANIYAPTI

LEKIN QOG‘OZ HUJJATLAR HAM YO‘QOLIB KETMAYDI

Tartib va intizom — muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti, garovi, deymiz. Lekin barchamiz ham buning tub mohiyatini tushunavermaymiz yoki amal qilmaymiz. Aytaylik, sog‘lom bo‘lishing uchun sog‘lom turmush tarzi tartiblariga rioya etishingiz shart. Xuddi shunday, ishda, xoh u davlat yoki xususiy sektorda bo‘lsin, muvaffaqiyatga, belgilangan maqsadlarga erishish uchun aniq tartib va intizomga rioya qilish qat‘iy talab etiladi.

Bu — masalaga bir shaxs nuqtayi nazaridan olib qaralgandagi holat. Agar tartib-intizom masalasiga biror vazirlik yoki tashkilot miqyosida qaradigan bo‘lsak, unga qat‘iy rioya etishning ahamiyati naqadar yuqori ekanini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Ana shu jihatdan olib qaralganda, muassasa, tashkilot, korxon va firmalarda hujjatlarni lozim darajada rasmiylashtirish, ular bilan ishlashni to‘g‘ri tashkil etish, arxiv hujjatlari saqlanishi ta‘minlash — jamiyatda qonuniylik, huquqiy tartibot va barqarorlikni, jamiyat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishini hamda davlatning normal faoliyatini ta‘minlovchi muhim shartlardan biri ekanini anglash qiyin emas.

Davlat tegishli me‘yoriy-huquqiy hamda uslubiy hujjatlar (ko‘rsatmalar, tavsiyalar) qabul qilish yo‘li bilan faoliyatning mazkur tarmog‘ini tartibga soladi. Chunki boshqaruv mehnatining tezkorligi, ishonchligi va tejamliligi, ish madaniyati, hujjatlarda qayd etilgan axborotdan kelgusida foydalanish imkoniyati ish yuritish qanday tashkil etilgani bilan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarini tasdiqlash haqida”gi qarori bilan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar, kompaniyalar va boshqa markaziy muassasalar apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini

tashkil etish bo‘yicha Namunaviy yo‘riqnomaga tasdiqlangan. Yo‘riqnomaga hujjatlarini tayyorlash qoidalari, usullari va jarayonlari, ular bilan ishlash tartibi va hokazolarni belgilaydi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan boshqaruv organlari va tashkilotlarda ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha aniq mexanizmlar, shakllar va usullar qayd etilgan.

Keyingi yillarda zamonaviy boshqaruv usullarini amaliyotga joriy etish, ijroni nazorat qilish va tekshirish shakllarini takomillashtirish, talabchanlikni kuchaytirish borasidagi amaliy ishlar, shuningdek, rahbarlar shaxsiy mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qat‘iy chora-tadbirlar davlat qurilishining serqirra vazifalarini bajarish, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish, bugungi murakkab sharoitlarda respublikani barqaror va jadal rivojlantirishning kafolati bo‘ladi.

1989-2016-yillarda, ya‘ni 27 yilda 20 ta kodeks, 826 ta qonun, 6 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilingan bo‘lsa, undan keyingi 4 yil — 2017-2020-yillarda barcha sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha 150 ta qonun, 2 mingga yaqin farmon va qarorlar qabul qilindi. Tabiiyki, buncha hujjatlarining ijrosini nazorat qilish oson emas va bu o‘z navbatida, ijro nazorati tizimini avtomatlashtirishni taqozo etdi.

Davomi 2-betda

Ona zamin bilan inson organizmidagi o‘xshash jihatlar ko‘p. Masalan, inson tug‘ilgan vaqtida tanasining 70 foizi suvdan iborat bo‘ladi. U ulg‘aygach, bu ko‘rsatkich kamayib, 60 foizgacha tushishi mumkin. Yerning taxminan 71 foizi suvdan iborat. Hozirgi texnik taraqqiyot davriga kelib sayyoramizda cho‘llanish darajasi oshib bormoqda. Inson tanasidagi suv miqdori kamaysa, u turli xastaliklarga chalinadi. Bu kabi faktlarni o‘rganar ekansiz, inson va yer bir-biriga hayratlanarli darajada o‘xshash ekanini ko‘rsatib.

## EKOLOGIK GIRDOB

tabiat va inson uyg‘unligi muvozanati buzilsa, jabri barchaga bo‘ladi



Insonning birgina kichik a‘zosiga shikast yetishi butun tanaga og‘riq beradi. Xuddi shunday, tabiatdagi bitta turning kamayishi muvozanatning o‘zgarishiga olib keladi. Bunday

o‘zgarish bevosita inson hayotiga daxl qiladi. Tanamizni qanday asrab-avaylasak, yon-atrofimizdagi mitti jonotlardan tortib, ulkan daraxtlargacha ehtiyotkorona munosabatda

bo‘lishimiz shart. Ayniqsa, sayyoramiz o‘pkasi bo‘lgan daraxtlar hayotimizda biz tasavvur eta olmaydigan darajada muhim.

Masalan, bir kishining kislorodga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun 22 tur daraxt kerak bo‘ladi. Nafas olishda qiyinlayotgan ekanimiz, demak, har birimizning yigirmadan ziyod daraxtimiz bor. Ular biz uchun havoni tozalab beryapti. Biz-chi, daraxtlarimizga shunga munosib javob qaytara olmaymizmi? Umuman, shuncha daraxt ehtiyotkorona borligini bilamizmi?

Mamlakatimizda keyingi yillarda ko‘kalamzorlashtirish ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Birgina Orolning qurigan tubiga qadalgan ko‘chatlar bugun ildiz otib, kosmosdan ham ko‘rina boshladi. Hatto yurtimizda boshlangan “Yashil makon” umummilliy loyihasi Turkiy davlatlar tashkiloti darajasidagi tashabbusga aylandi. O‘zbekiston xalqaro maydonda ham ekologik muammolarni bartaraf etish tashabbuskori ekan, biz boshqarlarga o‘rnak bo‘lishimiz shart. Buning uchun oldinga qo‘yilgan vazifalarni tahlil etish, yutuqlarni ommalashtirish orqali yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish zarur.

Davomi 3-betda

## Hududlar qiyofasi

## OBOD MAHALLADA YANGILANISH NAFASI

O‘zbekiston tumanidagi Sulaymon qishlog‘i tuman markazidan 15 chaqirim olisda joylashgan. Mahallada bo‘ldik. Qishda loy, yozda chang o‘nqir-cho‘nqir ko‘chali qishloqda bajarilgan ishlar qadim maskanga yangicha ko‘rk va fayz bag‘ishlabdi. Qo‘li qo‘liga tegmay mehnat qilayotgan quruvchilar, qo‘lbola simyo‘g‘chilarni temir betonli ustunlarga almashirayotgan elektruzozlar, suv tarmoqlarini payvandlash bilan andarmon bo‘layotgan suvsozlar o‘z yumushi bilan band. Mahallaga mehmon kelganini anglagan oqsoqol velosipeddan tushdi.

— Kelinglar, — deya qo‘l olib so‘rashdi Islomjon ota Muhitdinov ochiq chehra bilan. Maqsadimizni anglagach, ko‘zi quvonchga, ko‘ngli faxr-iftixorga to‘ldi.

— Yetimish to‘rt yoshga kirdim. Esimni taniganimdan buyon mahallamizda bu qadar obodonchiliklar bo‘lmagan. Shart-sharoitlarimiz haminqadar edi. Sal shamo

kelsa, chiroq o‘chardi. Yo‘l va suv masalasida amaliy yordam so‘rab bormagan joyimiz qolmagan. Ammo hech bir masalaga ijobiy yechim topilmagan. Uyga mehmon chaqirgani xijolat bo‘lardik. Mana, ko‘chalimiz shag‘allashtirilib, asfaltlanayapti.

Davomi 2-betda



## O‘zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligiga

## MEHNATKASHLAR MANFAATLARINING ISHONCHLI HIMOYACHISI

“Salkam 120 yillik tarixga ega O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyati davomida yuksalish va pasayish davrlari ham yuz bergan, lekin bu tashkilot hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda kasaba uyushmalari hayotida yangi rivojlanish bosqichi boshlandi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”, degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston kasaba uyushmalari xodimlari va a‘zolariga yo‘llagan tabrigida.

Ha, O‘zbekiston kasaba uyushmalari shunday uzoq tarixga ega. O‘rganish va izlanishlar 1905-1907-yillarda hozirgi O‘zbekiston hududida, haqiqatan, kasaba uyushmalari paydo bo‘lganidan dalolat beradi. Dastlabkilar nomida “kasaba” so‘zi mavjud bo‘lmas-da, tabiiati va xususiyatiga ko‘ra, ishchi-xizmatchilar tomonidan o‘z iqtisodiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan, ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish masalalari bilan shug‘ullangan sababli hozirgi kasaba uyushmalari faoliyatiga to‘la mos keladi.

Umuman, 1905-yilning kuz fasliga kelib, Toshkentda ishchilarning 15 ta

to‘garagi mavjud bo‘lgan. Turkiston shunday uzoq tarixga ega. O‘rganish va izlanishlar 1905-1907-yillarda har ikki tomondan ham bir vaqtning o‘zida boshlangan O‘rta Osiyo va Orenburg — Toshkent temir yo‘l qurilishi bilan bog‘liq, desak xato bo‘lmaydi. Tarix fanlari doktori, professor L.V.Gentshkening ta‘kidlashicha, 1905-yil kuzida Butunrossiya temir yo‘l uyushmasining Turkiston bo‘limi tashkil etilgan. 1906-yil boshida O‘rta Osiyo va Orenburg — Toshkent temir yo‘llarining 8 ming nafar ishchi-xodimini o‘zida birlashtirgan.

Davomi 5-betda



## Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

## ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMI RIVOJLANYAPTI

## Lekin qog'oz hujjatlar ham yo'qolib ketmaydi

Ulug'bek YUSUPOV,  
“O'zarxiv” agentligi direktori

## Boshlanishi 1-betda

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash uning natijaviy samaradorligi, xususan, axborotning o'zaro ta'siri, qayta ishlaniishi va izlanishini amalga oshirish uchun vaqt qisqarishi hisobiga unumdorlikni o'rtacha 20 foizga ko'paytirish imkonini yaratadi. Shu bois, mamlakatimizda xo'jalik boshqaruvi hamda hokimiyat organlari faoliyatida axborot texnologiyalarini faol o'zlashtirish va keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlarini ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni qabul qilinarayotgan qonunchilik hujjatlarini ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishning ta'sirchan tizimini yaratish, barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirishda muhim dasturlamal bo'ldi.

Farmon bilan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy qilindi. Barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijroni nazorat qilish, nazorat kartotekalarini yuritish va hisobotlarni shakllantirish faqat “Ijro.gov.uz” tizimida amalga oshirilishi belgilandi.

Qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlarini va topshiriqlar bajarilishining ta'sirchan tizimini yaratishda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi o'rini mustahkamlash, uning ahamiyatini yanada oshirish hamda samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida 2021-yil 31-mayda davlatimiz rahbarining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi va mazkur hujjat bilan qonunchilik hujjatlarini va topshiriqlar ijrosini ta'minlashning yangi, elektron tartiblari belgilab berildi.

2023-yil yakuniga ko'ra, vazirlik, idoralar va ularning tizimidagi 27 mingga yaqin tashkilotlar “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga ulangan. Tizimdan 100 mingga ziyod foydalanuvchilar foydalanib kelmoqda. Tizimda 31 milliondan ziyod hujjat imzolandi va hujjatlar salmog'i kundan kunga oshib bormoqda. Dunyoda esa har yili 6 milliardga yaqin yangi hujjat paydo bo'lmoqda. Shubhasiz, bunday sharoitda elektron hujjat aylanishi yanada tez rivojlanadi.

Bu esa axborot almashish tezligini oshirib, uni saqlash joylariga bo'lgan ehtiyojni jiddiy ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Xo'sh, elektron hujjat aylanishining o'zi nima, uning afzalliklari nimalardan iborat?

Elektron hujjat aylanishi elektron hujjatlarini axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisidan iborat. Elektron hujjat aylanishi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

“Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi qonun 2004-yilda qabul qilindi, ammo o'sha paytlarda tashkilotlarning juda ozchilik qismi elektron hujjat aylanishi tizimiga o'tgan edi. Bugungi kunga kelib, ularning soni sezilarli ko'paydi.

Bu tizim o'zida elektron hujjatlarini axborot tizimi orqali jo'natish va olish jarayonlarining majmuasini aks ettiradi. Elektron hujjat aylanishidan kelishuvlar (shu jumladan, shartnomalar tuzish), hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy va norasmiy yozishmalarni

30-50 yilgacha, deb belgilangan. Texnologik nuqtayi nazardan ular besh yildan o'n yilgacha eskiradi. Shuning uchun fayllarni doimiy ravishda yangi saqlash vositalariga ko'chirib turish zarur. Bir vaqtning o'zida hujjatlarining rezerv (qo'shimcha) nusxalarini yaratish kerak.

Bugungi kunda boshqaruv jarayonini faqatgina qog'oz hujjatlarini bilan cheklashning imkoniyati yo'q. Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy darajasi boshqaruv va ish jarayonlarida an'anaviy qog'oz

mutaxassislar va axborot tizimlari ishlab chiquvchi dasturchilar, balki huquqshunoslar, arxivchilar va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy soha vakillari kasbiy bahs-munozaralarini markazida turibdi.

Arxivchi va hujjatshunoslarning hujjat aylanishiga an'anaviy nuqtayi nazari e'tiborni ish yuritish jarayonlari, hujjatlarini topshirish-qabul qilish, ularning tashkilotda harakatlanishiga qaratadi. Hujjatshunoslik va arxivshunoslik pozitsiyasidan qaraganda, elektron hujjat aylanishining mazmuni tomoni ilmiy takomillashtiruvga hali muhtoj. E'tirof etish lozimki, bu borada ham siljishlar mavjud, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilmoqda, tahlil etilmoqda, umumlashtirilmoqda. Natijada me'yoriy-huquqiy hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilmoqda, uslubiyotlar ishlab chiqilmoqda.

Huquqshunoslar elektron hujjat aylanishiga elektron hujjatlarini ish faoliyatida qo'llash tizimi sifatida qaraydi. Natijada e'tibor elektron hujjat aylanishining yuridik ahamiyati va elektron hujjatlarining yuridik kuchi, elektron imzolarning turli shakllarini qo'llash, sudlardagi nizolarda dalil sifatida elektron hujjatlaridan foydalanishga qaratiladi. Bunda elektron hujjat aylanishi chegaralarini huquqshunoslar hujjatshunoslarga nisbatan kengroq oladi. Bu — tashkilotning o'zidagina hujjat aylanishi emas, balki uning tashqarida ham, boshqa subyektlar bilan aloqadorligi ham alohida ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar ko'p hollarda hujjat aylanishini elektron hujjatlarini yetkazish vositalari va kanallari, elektron xabarlar almashinuvi va ixtisoslashtirilgan tizimlar yaratish, shuningdek, ularning integratsiyasi bilan bog'laydi.

Keltirilgan omillar va holatlar tahlilidan kelib chiqib, ko'p uchrashuv va deblatlarda muhokama etiladigan “kelgusida qog'oz asosdagi hujjatlar muomaladan butunlay chiqib ketishi mumkinmi”, mazmunidagi savollarga quyidagicha javob berilishi lozim: elektron hujjat aylanishi tizimlarining muttasil rivoji, shuningdek,

“Arxivchi va hujjatshunoslarning hujjat aylanishiga an'anaviy nuqtayi nazari e'tiborni ish yuritish jarayonlari, hujjatlarini topshirish-qabul qilish, ularning tashkilotda harakatlanishiga qaratadi. Hujjatshunoslik va arxivshunoslik pozitsiyasidan qaraganda, elektron hujjat aylanishining mazmuni tomoni ilmiy takomillashtiruvga hali muhtoj. E'tirof etish lozimki, bu borada ham siljishlar mavjud, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilmoqda, tahlil etilmoqda, umumlashtirilmoqda.”

va boshqa axborotlarni uzatishni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Elektron hujjatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishi kerak. Ularni saqlash chog'ida hujjatlaridan erkin foydalanish va qog'oz nusxalarini taqdim etish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Saqlash muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shunga o'xshash maqsadga mo'ljallangan qog'oz hujjat uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmagligi kerak.

Biroq ma'lumotlarni raqamli asoslarda saqlash vositalarining birortasi ham hujjatlarini uzoq saqlash uchun mos kelmaydi. Mutaxassislarning umumiy xulosasiga ko'ra, ularning jismoniy yaroqlilik muddati

hujjat aylanishidan elektron hujjat aylanishiga o'tishda yangidan yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Ayni paytda qog'oz hujjat aylanishidan to'liq elektron hujjat aylanishiga o'tishning nazariy va amaliy masalalari barcha davlatlarda keng muhokama qilinmoqda va bu masalalar, keyinchalik huquqiy tartibga keltirilishi va amaliy boshqaruv faoliyatida qo'llash choralarini ko'rishni talab etadi. Bundan esa amaldagi elektron hujjat aylanish darajasining bugungi holatini baholash, aralash elektron-qog'oz hujjat aylanishi muammolarini tahlil qilish ehtiyoji kelib chiqadi.

Elektron hujjat aylanishi muammolari nafaqat axborot texnologiyalari bo'yicha

## Hududlar qiyofasi

## OBOD MAHALLADA YANGILANISH NAFASI

## Boshlanishi 1-betda

Yo'l, suv, elektr ta'minoti bilan bog'liq ko'plab muammolarga yechim topildi. Tungi chiroqlar kechalimizni kunduzdek charog'on qildi. Kam ta'minlangan, qiynalgan, yakka-yolg'iz, ko'p bolali oilalarga uy-joylar qurib berilyapti, ta'mirlanayapti. Bunaqasini shu kunga qadar ko'rmaganmiz. Qabristonlarimiz obod bo'layotgani ayni muddao bo'ldi-da.

Uch mingdan ortiq aholi umrguzaronlik qilayotgan qishloq hayot tarzida o'ziga xos o'zgarishlar bo'y ko'rsatayotgani bor gap. Odamlar yuzida yangicha kayfiyat va ko'tarinkilik hukmron. Fayziyob ko'chalari, aholi xonadonlarida boshlangan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari ko'hna qishloqqa yangi hayot nafasini olib kirdi.

— Shu kunga qadar 215 ta temir-beton tayanch ustun olib kelinib, 3 kilometrdan ortiq elektr tarmog'i tortildi, 2 ta qo'shimcha transformator o'rnatildi, mavjudlari ta'mirdan chiqarildi, — deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Ro'zimaqon Vahobov. — Hududimizdagi 306 xonadonda ta'mirlash, saranjom-sarishtalik ishlari yakuniy bosqichga kirdi. 55 xonadon to'liq ichki va tashqi ta'mirlandi, 215 xonadonning fasad qismiga zamonaviy ko'rinish berildi. Book cafe, vorkout sport maydonchasi qurilmoqda. Bolalar uchun o'yin maydonchalari barpo etilyapti.

Og'riqli masalalardan biri toza ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq edi. Endi bu masalaga ham ijobiy yechim topildi. Bu maqsadlar uchun bitta ichimlik suv qudug'i qazish, suv minorasi va nasosi, transformator hamda zararsizlantirish boshqaruvi o'rnatish,

2600 metr ichimlik suv tarmog'i tortish ishlari bajarildi.

— Bu yerga kelib bo'lib tushganimga 40 yil bo'lyapti, — deydi Rahimxon Ismoilova. — Ichimlik suvni bir necha chaqirimdand tashib kelganmiz. Bugun hamma narsa o'zgardi. Toza ichimlik suv oshxonamizgacha olib kirib berildi. Bularni ko'rib, bugungi yoshlarga havasim keladi. Baxtli hayot kechirish uchun hamma shart-sharoitlar mujassam. Mehnat qilgan, izlangan kam bo'layotgani yo'q. Bunga shukrona qilishimiz kerak. Har tong ko'chaga chiqib, bir yangilik va o'zgarishlarning guvohi bo'lyapmiz. Bularning bari oddiy odamlar uchunligidan faxrlanamiz.

Qiynalganlarga suyanchiq bo'lish, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash xalqimizga xos fazilatlaridan. O'lmas qadriyatlar doirasidagi ishlari o'ksik qalblar ko'nglini ko'tarmoqda, quvonch-shodlik olib kirmoqda.



Husanjon Qobilov yakka-yolg'iz yashaydi. Nafaqa puli o'zidan ortmaydi. Uy-joyini ta'mirlash, tartibga keltirish imkoniyatiga ega emas. Oila hayot tarzini o'rganagan mutasaddilar hamjihat bo'lib, 3 xonali shinaim uy qurib berishdi.

— O'zgarishlarni ko'rib, bahri dilim ochilib ketdi, — deydi uy sohibi Husanjon aka. — Uy qurib beramiz, deiyishganida avvaliga ishonmadim. Ko'nglimni ko'tarish uchun shunchaki aytib qo'yishdi-da, deb o'ylagandim. Adashgan ekanman. Bir guruh ustalar shag'al, qum, sement, g'isht, shifer, taxta olib kelib, hash-pash deguncha, yuni ko'tarib qo'yishdi. Shu kunlarda ko'chib kiraman. Bunday saxovatli ishlarning boshida turib, har jihatdan qo'llab, ko'mak berayotganlardan cheksiz minnatdorman. Hammasi uchun katta rahmat.

Dastur doirasida mahalladagi kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 3



oilaning uy-joyini ta'mirlash, kerakli shart-sharoitlar yaratish borasida tizimli ishlari olib borildi. Nogironlar uchun arava, oziq-ovqat mahsulotlari berilyapti.

Qishloqda birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish uchun sharoit va imkoniyatlar yo'q edi. Shifokor ko'rigiga borish uchun 4 chaqirim naridagi 71-qishloq oilaviy poliklinikasiga murojaat qilishga to'g'ri kelgan. Endilikda bu kabi ortiqcha ovoragarchiliklar barham topmoqda. Mahalla hududida birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishga ixtisoslashgan yangi bino qurilishi poyoniga yetdi.

— Qon bosimim ko'tarilib turgani uchun tez-tez shifokor ko'rigiga borib turaman, — deydi mehnat faxriysi Ra'noxon Temirova. — Mahallamizda birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish tarmog'i ishga tushirilayotganidan xursand bo'lib o'tiribmiz. Kasallikni

davolanagan ko'ra, uning oldini olish muhim. Qulayliklar umrimizga umr qo'shmog'ida. Qilsa bo'larkan-ku.

Malakali shifokorlar mahallada bo'lib, fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazdi. Xastalıkları aniqlangan 137 bemorga bepul dori-darmon ulashildi va jarrohlik amaliyoti uchun yo'llanmalar berildi.

Mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylanoqda. Ishsizligi bois, “Ayollar daftari”ga kiritilgan 56 xotin-qiz manzilli dasturlar asosida ish bilan ta'minlandi. 13 nafariga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 80 million so'm imtiyozli kredit berildi, 3 nafari haq to'lanadigan jamoat, 11 ayol mavsumiy ishlarga jalb etildi, 11 nafariga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi, 3 nafari o'zini o'zi band qildi, kasb-hunar o'rganish istagida bo'lganlari o'qitilmoqda.

eng zamonaviy va ixcham elektron axborot massivlarining yaratilishi qog'oz asosdagi hujjatlarining butkul yo'q bo'lib ketishini keltirib chiqara olmaydi. Chunki elektron hujjatlarni saqlash hamda ulardan foydalanishni tashkil etishda bir qator qo'shimcha yordamchi vositalar, jumladan, elektr energiyasi, tarmoqlar aloqasi, ma'lumotlarni o'qish va islov berish vositalariga bog'liqlik mavjud. Qog'oz hujjatlarda esa bu bog'liqliklar u darajada katta emas.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oldingi davrlarda yaratilgan alohida qimmatli va noyob hujjatlarining yuqori sifatli (katta zichlikdagi) elektron obrazlari asl hujjatlarining muomaladan chiqarib yuborilishiga asos bo'la olmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi tashkilot rahbarlari gohida qog'oz hujjatlaridan to'liq voz kechgani, barcha axborotlar va arxivlarni to'liq elektron ko'rinishiga o'tkazish bo'yicha fikrlarni bildirgan holda, elektron hujjat aylanishida tashkilot va muassasa faoliyati samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini ko'radi. Eng avvalo, bunday o'tishning real bosqichlarini, huquqiy oqibatlarini va kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy darajasi elektron hujjatlarini an'anaviy qog'oz axborot tashuvchilaridan ustun kelayotgani bilan tavsiflanmoqda. Shuning uchun undagi axborotni saqlab qolish juda ham muhim.

Bugungi kunda har bir vazirlik, idora, tashkilot va muassasa elektron hujjat aylanishini joriy etish zarurati bilan to'qnashmoqda. Shuning uchun elektron hujjatlarining ishonchligini ta'minlash muammosi yuzaga kelmoqda. Misol uchun aytaylik, elektron pochtdan olingan hujjat, u oddiy imzo bilan imzolangan va muhr bilan tasdiqlanmagani sababidan ishonchligi bir qadar cheklangan. Boshqa tomondan esa, elektron hujjat aylanishi tizimi “elektron hukumat”ning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, elektron hujjat aylanishi tizimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilish davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda xususiy sektor va aholi o'rnatilgan o'zaro aloqalar samaradorligini oshirish, axborotlardan foydalanish, mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, elektron hujjat aylanish tizimlari qulay, tezkor va zamon talablariga javob beradigan darajada ishlashga xizmat qiladi. Ammo uning axborot xavfsizligi masalalari, undagi hujjatlarining doimiy saqlanishi masalalariga e'tibor qaratish zarur.

Tadbirkor Xurshidjon Dehqonov tashabbusi bilan sport maykasi va bolalar trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tikuv sexi qurib bitkazildi. Bir vaqtning o'zida mahalladagi 150 nafar yosh mehnat qiladi.

— Bu juda katta imkoniyat, — deydi mahalla xotin-qizlar faoli Dilshoda Azimova. — Mahallamizda paypoq va trikotaj buyumlari ishlab chiqarish tobora rivojlanib bormoqda. Ayni kunda mazkur yo'nalishda ellikdan ortiq tadbirkorlik subyekti ishlab turibdi. Hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz ko'p. Mahallamizdagi mavjud infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlari yanada imkoniyatlarimizni ko'paytiradi.

Mahalladagi hokim yordamchisi Muhammadamin Solijonovning aytishicha, birinchi chorakning o'zida tadbirkorlik va kichik biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun 13 ta tadbirkorlik subyektiga 160 million so'm imtiyozli kredit berilgan. Yana ko'plab tashabbuslar, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish ustida ish olib borilyapti.

Ko'lami keng obodonchilik, bunyodkorlik ishlari doirasida har bir soha qamrab olingan. 53-umumta'lim maktabini ta'mirlash, sport maydoni, xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti qurish, piyodalari uchun qulay yo'laklar hozirlash ishlari so'nggi bosqichga kirgan. “Mahalla yettligi” uchun yangi bino, mahalla guzari, jamoatchilik va nuroniylar maskani qurilishi ko'hna qishloq me'moriy qiyofasiga o'ziga xos uyg'unlik bag'ishlab turibdi.

Rasuljon KAMOLOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yashil makon

# EKOLOGIK qirdob

## tabiat va inson uyg‘unligi muvozanati buzilsa, jabri barchaga bo‘ladi



Boshlanishi 1-betda



**Boboravshan G‘OZIDDINOV,**  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Maqsad aniq, sharoit bor, tashabbuskorlar-chi?

Prezidentimiz raisligida joriy yil 29-mart kuni “Yashil makon” loyihasi doirasidagi ishlar hamda chiqindilarni boshqarishni takomillashtirish masalalari bo‘yicha tahliiliy ruxda o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida loyiha doirasidagi ishlar to‘g‘ri tashkil etilgan hududlar e’tirof etildi. Joriy yil bahorda 125 million tup ko‘chat ekilishi mo‘ljallangan. Jumladan, hududlarda bog‘lar yaratish, yo‘l bo‘ylaridagi bo‘sh joylarga 10 qatordan daraxt ekish ishlari boshlangan. Mazkur vazifa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Sayyoramizning yashil o‘pkanisi — daraxtlar faqat kislorod ishlab chiqargani uchun muhim emas. Ular tabiatni asliday asrashda, inson salomatligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy misol, katta shaharlar aholisi doim shovqindan aziyat chekadi. Daraxtlar esa mashinalardan chiqadigan shovqinni yutib yuborishi xususiyatiga ega.

Ha, katta yo‘llar chetiga o‘n qatordan daraxt ekish tashabbusi bekorga aylangan yo‘q. Ular shovqinni yutish barobarida, avtotransportlardan chiqayotgan zaharli gazlarni ham tozalab beradi. Daraxtning shu xabi xususiyatlari, uning tabiatdagi o‘rni qanchalik muhim ekanini bilgan kishi “Yashil makon” loyihasining ahamiyatini yurak-yurakdan his qiladi. Boshlangan ezgu tashabbusga qo‘l uchida qaramaydi.

Bugun mavjud ekologik holatni yetarlicha anglab yetmayotganlar ham bor. Ular safida o‘z hududida anchayin o‘zgarish qilishga qodir mas’ullarning borligi kishini o‘ylantiradi. Afsuski, ayrim viloyat va tumanlarda daraxt ekadigan joylar haligacha belgilanmagan. Hatto uni sug‘orish tizimini tashkil qilish va ko‘chat sotib olish uchun mablag‘ ajratilmagan. Biz har kuni suv, havo, umuman, ekologiya muammosi haqida bong uramiz. Turli tadbirlar uyushtiramiz. U tadbirlar boshida o‘sha viloyat va tuman mas’ullari turadi. Ammo amaliy ishga kelganda... Bu oyog‘iga tosh bog‘lab, dengiz tubiga sho‘ng‘ishga o‘xshaydi!

Holat Vazirlar Mahkamasida tanqidiy ko‘rib chiqildi. Tahsil natijasiga ko‘ra, 28 nafar mas’ul shaxsaga intizomiy jazo qo‘llanilgan. Ular safida viloyat hokimi o‘rinbosarlari, tuman hokimlari va ularning o‘rinbosarlari bor. Sohada namuna ko‘rsatganlar ham yo‘q emas. Deylik, Mudofaa vazirligi 100 gektar, Raqamli texnologiyalar hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligini 65 gektardan bog‘ yaratgan. Ammo Energetika va Transport vazirligilariga ajratilgan yerlarda ko‘chat to‘liq ekilmagan.

“Yashil makon” loyihasi mavsumiy yumush. Bir mavsumdagi yo‘qotish, xato bir yillik kechikishga olib keladi. Chunki bahorda ko‘klamagan ko‘chatlar o‘rniga kuzda yana nihol ekiladi. Natijasi esa kelgusi bahorda aniq bo‘ladi. Shu tariqa bizning kichik xatoimiz yillarga ta’sir qiladi.

Ehtimol, mas’ullar topshiriqni vaqtida bajarish orqali suv muammosini hal etish, to‘fonlarni oldini olish va 30 turdagi hayvonlar turini saqlab qolishga hissa qo‘shayotganini bilganida burchalik befarq bo‘lmas edi. Ha, biz faqat havoni tozalaydi, deb o‘yladigan daraxtlar, hatto suvni tejaydi, tozalaydi.

Nega daraxt ekish kerak?

Ilmiy izlanishlarga ko‘ra, daraxt ildizi atrofida yerdan namlik saqlanadi. Uning soyasi bug‘lanishni kamaytiradi. Bundan tashqari, issiqda barcha yashillik dunyosi bargidagi suv bug‘lanadi

Jarayonda ildizi baquvvat daraxtlar boshqa o‘simliklardan ko‘ra, ko‘proq xizmat qiladi. Ularning bargidan ajralib chiqqan bug‘ yerga qor-yomg‘ir bo‘lib qaytadi. Ammo buning uchun daraxtlar ko‘p bo‘lishi, yerdagi isish jarayoni me’yorida saqlanishi kerak. Aks holda, bug‘lanish jarayoni tezlashadi. Namlikning katta qismi havoda shunchaki yo‘qolib ketadi. Demak, daraxt qancha ko‘p bo‘lsa, yerda namlik shuncha yaxshi saqlanadi. Mazkur jarayon sabab ob-havo harorati mo‘tadil bo‘ladi.

Suv taqchilligining asosiy sababi yerdagi haroratning oshishi bilan bog‘liq. Sayyoramizdagi global isish bug‘lanishni tezlashtirdi. Mangu muzliklarda erish jarayoni jadal tus oldi. Oqibatda yomg‘ir, qor bo‘lib yerga qaytishi kerak bo‘lgan bug‘ning ma’lum qismi yo‘qlikka yuz turtmoqda. Bunday vaqtda qor yog‘ishi kamayib, jala quyishi ko‘paydi. Jala suvi yerga deyarli singmaydi. U sel bo‘lib toshib, yana bug‘lanib ketadi. Yer o‘ziga yetarlicha suvni olmas ekan, jarayon shu zayilda tezlashib ketaveradi. Uni jilovlash uchun yashillik dunyosini ko‘paytirish kerak. Suv hayotdir, deymiz. Uni asrash, tejabshni targ‘ib etamiz. Lekin bu ishlar faqat tish yuvishda suvni idishga solib islatish bilan bitmaydi. Obihayotini asrash uchun ham daraxt ekish kerak bo‘ladi.



Ularini to‘g‘ri yo‘naltirish, vaqtda yo‘qotish dunyo bo‘yicha eng dolzarb ekologik masala hisoblanadi. Ochig‘i, kundalik chiqindilarni to‘g‘ri ajratib, belgilangan qutiga tashlashni hamon o‘rgana olmadik. Ularni olib ketish, yo‘qotish bilan bog‘liq ishlarda ham kamchiliklar bor.

Endi bu masalani hal etish uchun hududlarda obodonlashtirish, tozalikni ta’mirlash borasida mutlaqo yangi tizim bo‘ladi. Yangi tajribaga ko‘ra, joriy yil 1-maydan boshlab har bir viloyatda 2 tadan tumanda obodonlashtirish bo‘limlari vazifasi xususiy sheriklik asosida chiqindini qayta ishlash korxonalariga o‘tkaziladi. Tadbirkorlar o‘ziga birkiritilgan hududda daraxt va gullar ekadi. Ularni parvarishlab, ariqlarni tozalaydi. Ko‘chalam yoritish bilan birga, chiqindilarni olib ketadi. Obodonlashtirish bo‘limlariga har yili byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar ham ularga yo‘naltiriladi. Ushbu tajriba o‘zini oqlasa, 2025-yildan barcha tuman va shaharlarda yo‘lga qo‘yiladi.

Faqat Toshkent shahri uchun alohida tizim yaratiladi. Ya’ni poytaxtimizdagi ko‘chalarni tozalash, ko‘kalamzorlashtirish, yo‘llarga xizmat ko‘rsatish kabilar 15-apreldan avkuzdan orqali xususiy sheriklarga beriladi. Bunday tizim zamirida tadbirkor manfaatini uchun yaxshiroq ishlashni, natijada ko‘chalarimiz obod, sarishta bo‘lsin, degan ezgu niyat bor.

Ayni sabab tufayli chiqindi poligonlarini tartibga keltirish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha ham yangi tizim yaratilmoqda. Unga ko‘ra, har bir viloyatda joylashuvi qulay bo‘lgan 3-4 tadan poligon maxsus eko-sanoat zonasiga aylantirilib, qayta ishlash loyihalari amalga oshiriladi. Qolganlarida chiqindini vaqtincha to‘plab, qayta yuklaydigan stansiyalar ishga tushiriladi. Muddatini o‘tab bo‘lgan poligonlar

Qadriyatlar qaddi tiklansa...

Milliy media makonimizda daraxt kesilgani haqida berilgan xabarlarga jamoatchilik doim keskin e’tiroz bildiradi. Izohlarni ko‘zdan kechirsangiz, biron kishi murosa yo‘lini tanlamaydi. Bu — jamiyatimizda tabiatevarlik hissi kuchli ekanidan dalolat. Ona zaminga befarq bo‘lmagan kishi uning uchun qilinadigan mehnatdan o‘zini olib qochmaydi.

Xalqimiz azaldan farzandni bo‘lganida daraxt ekan. Ehtimol, shu bois, daraxt hayot timsoliga aylangan bo‘lsa kerak. Odamlar qadim-qadimdan daraxtlarni tiriklikning belgisi, deb qabul qilgan. Hatto odamni so‘ngi manzilga kuzatganida unga soya tashlab turishi, o‘tganlar haqqiga duo qilib turishi uchun ziyoratgohlarga daraxt ekilgan. Tabiiyki, insonlar hayoti davomida yashil do‘stlarga shunga yarascha munosabatda bo‘lgan.

Ammo keyingi vaqtlarda daraxt ekish bilan bog‘liq qadriyatlarimizga bir oz befarq bo‘lib qoldik nazarlantiramiz. Davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan yig‘ilishda mazkur yo‘nalishdagi ishlarga ham urg‘u berildi. Unda daraxt ekishni ommalashtirish bo‘yicha tashabbus va targ‘ibot yetishmayotgani qayd etildi. Buning uchun davlat tashkilotlari bilan birga, mahalliy kengashlar, Ekopartiya va boshqa uyushmalar, mahallalar birdek harakat qilish kerakligi ta’kidlandi. Agar daraxt ekish bilan bog‘liq qadim qadriyatlarimizning qaddini rostlasak, xalqimiz juda ko‘p bog‘ yaratadi. Ayniqsa, shaharda yashab, tabiat bilan hamnafas bo‘lishni doim sog‘inadiganlar uchun imkoniyatlar ehsigi ochilishi kerak. Quvonarlisi, bu borada xayrli tashabbusga qo‘l urildi.

Rejadagi ishlar muhokamasi

Darhaqiqat, ko‘plab yurtdoshlarimiz ko‘p qavatli uyining yonida mo‘jazzina bog‘i bo‘lishini istaydi. Shuning uchun aksariyat kishilar uy olishda birinchi qavatdan, oldida hovlichasi bor joyini axtaradi. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi ham daraxt ekish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yuqorida bir kishi bemalol nafas olish uchun 22 tup daraxt kerak bo‘lishini aytdik. Mazkur tashabbus orqali har birimiz hech bo‘lmassa, nafas olishimizga yetadigan daraxtlarni ko‘kartirishimiz mumkin.

asosida Toshkent viloyatida yaxshi tashabbus boshlangan edi. Ya’ni tumanlar hududidan yer ajratilib, 30 yil muddatga obodonlashtirish boshqarmasiga beriladi. Mazkur yerlarda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy qilindi. E’tiborlisi, bu ishlar mahalliy byudjet hisobidan amalga oshirildi. Yerlar daraxt ekishga tayyor qilinib, aholiga topshirildi. Bu joyga ekilgan ko‘chatlar uning egasi nomi bilan tamg‘alanaidi. Daraxtlar obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari tomonidan parvarishlanadi.

Endi barcha viloyatlarda ushbu tajriba ommalashtiriladi. Shu orqali farzandli bo‘lgan kishilar ajdodlar merosini davom ettirib, shaharda

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga joylarda 444 ta yashil bog‘ va 160 ta jamoat parki tashkil qilish, “Mening bog‘im” loyihasini ishga tushirish vazifasi qo‘yildi. Ayni paytda ijtimoiy muassasalarga ko‘chatlarni bepul yetkazib berish amaliyoti izchil davom ettirilib, ularga 4 milliondan ziyod ko‘chat tarqatiladi.

ekologik masalalarda ancha ilg‘orlaymiz. Xalqaro maydonda ham targ‘ib etilayotgan “Yashil makon” loyihasi vatanimiz orqali butun sayyora himoyasi yo‘lidagi ulkan qadam bo‘ladi.

Yo‘l chetlari obod bo‘ladi

Yo‘l ma’lum hudud aholisi, ularga bosh bo‘lgan mas’ullarning yuzi hisoblanadi. Qadimda bozorlarga qarab xalqning turmush darajasiga baho berilgan. Yo‘lga qarab esa ularning fe’l-atvori o‘rganilgan. Yo‘ning ravonligi, kengligi, ikki cheti obodligi shu yerda yashovchi odamlarning bag‘rikeng, mehnatsevar, elparvarligini bildirgan. Yo‘l chetidagi yerlarning chiroyi mahalliy aholining ko‘ngli obodligidan guvohlik beradi. Afsuski, hamma joyda ham yo‘l chetlari obod emas. Ayrim joylarda katta yo‘l yoqasidan ariq to‘la suv oqib o‘tgan bo‘lsa-da, atrofini ajriq bosib yotganini ko‘ramiz. Negaki, egasiz, qarovsiz joylar shu ahvolda kelib qoladi. Endi shu kabi joylar talabgorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma asosida 10 yilga beriladi. Yerni olganlar 5 qatordan ko‘chat ekib, bog‘ yaratadi, yo‘l chetlarini obod qiladi.

Saratonning qilishi. Boshdan quyosh, oydoqdan asfaltning issig‘i bildirib o‘tadi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, sevimli shoirimiz Eshqobil Shukur bilan hamrohlarimizni kutib yo‘l chetidagi daraxt soyasida to‘xtadik. Ustoz ijodkor bir muddat o‘yga taldi va o‘ziga o‘zi gapirganday dedi:

— Shu daraxtlarning matonatiga qoyil qolaman, — dedi. — Shaharda qancha shovqin, issiqda, mashinalarning zaharli gazini yutib, joyidan jilmay turibdi.

Shu tobdan ustoz ijodkor daraxt emas, odam haqida gapiryotganday edi. Ajablaniyb qarab turganimni ko‘rgach: “To‘g‘ri-da, axir bu ham tirik jon-ku”, dedi. Bu gaplar shoirona go‘zal tashbeh emas, hayotiy haqiqat ekaniga shubhasiz ishonamman. O‘shandan beri katta shaharda, yo‘l chetida turgan daraxtlarni ko‘rsam, ularning matonati, zamonimizning tilsiz qahramonlari haqida o‘ylayman. Afsuski, ba’zida osonroq yo‘lni tanlab, hayotimiz uchun muhim bo‘lgan jihatlardan voz kechganimizni bilmay qolamiz. Taraqqiy etayotgan davlatlar poytaxtida qurilish ko‘p bo‘lishi tabiiy. Shu jarayonda tartibsiz ish olib borish oqibatida Toshkent shahrida daraxtlar kesilishi avj ola boshladi. Bunga barham berish uchun daraxtlar kesilishiga moratoriy e’lon qilindi.

Aholi soni oshib, shaharda ko‘p qavatli binolar bilan birga ishlab chiqarish quvvatlari, avtotransportlar soni oshib borayotgan ekan, shunga mutanosib ravishda yashil hududlar maydoni ham kengayishi zarur. Shu bois, yashil hududlarni ko‘paytirish bo‘yicha Toshkent shahrida yaxshi tajriba yo‘lga qo‘yilgan edi. Unga ko‘ra, shaharsozlik kengashi yangi qurilishlar maydonining kamida 30 foiziga daraxt ekish shart. Hatto hududga ekiladigan ko‘chat navi ham belgilab berilmoqda. Ushbu shartlar bajarilgach, obyekt foydalanishga qabul qilinayti.

Nazarimizda, bu eng to‘g‘ri yo‘l. Negaki, ayrim quruvchilar imoratni bitirib, topshirishnigina o‘ylaydi. Lekin uning atrofida yashil hudud,

ekologik muammolarga darchim haqida kim qayg‘uradi? Loyihalash davrida shu jihatlar qat’i nazoratga olinmasa, aholi keyinchalik ko‘chat ekishga joy ham topa olmasligi mumkin. Bunday holatlar kuzatildi ham. Aynan jamoatchilik nazorati, qonun ustuvorligi sabab ko‘p qavatli uylar orasidagi daraxtlarni kesishga chek qo‘yildi. Endi boshlangan ishlarni yanada rivojlantirish, uning muntazamligini ta’mirlash zarur. Shu bois, yig‘ilishda Qurilish vazirligiga bu tartibni barcha hududlarda ommalashtirib, shaharsozlik me’yorlari va litsenziya talablariga daraxt ekish majburiyatini kiritish topshirildi.

Endi quyidagi raqamlarga e’tibor qiling. Joriy yil 2,5 mingta ko‘p qavatli uy qurib, foydalanishga topshirilishi kutilmoqda. Ushbu qurilish hududlarining 30 foizida bog‘ yaratiladi. Bundan tashqari, 38 ta “Yangi O‘zbekiston” massivining har birida kamida 1 gektardan yashil xiyobon tashkil qilinishi belgilangan.

Shuningdek, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga



joylarda 444 ta yashil bog‘ va 160 ta jamoat parki tashkil qilish, “Mening bog‘im” loyihasini ishga tushirish vazifasi qo‘yildi. Ayni paytda ijtimoiy muassasalarga ko‘chatlarni bepul yetkazib berish amaliyoti izchil davom ettirilib, ularga 4 milliondan ziyod ko‘chat tarqatiladi.

Bular kichkina raqamlar emas. Faqat endi mazkur vazifani bajarishga panja orasidan qaramasligimiz shart. Umuman, yurtimizda ekologik muammoni hal etishning eng oqilona yechimi — daraxtlarni ko‘paytirish borasida samarali yechimlar ilgari surilmoqda.

Masalan, har yili “Eng yashil mahalla” tanlovi o‘tkaziladi. Tanlovda g‘olib bo‘lgan 14 ta mahallaga Ekologiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan daraxt ekish va sug‘orish, yashil jamoat parkini barpo etishga 500 million so‘mdan o‘tkazib beriladi. Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga xizmatda foydalanish uchun 1 tadan elektromobil topshirish amaliyoti ham yo‘lga qo‘yilgan. Shuning o‘ziyoq “Yashil makon” loyihasining amalda samara berishiga qat’iy kirishilganini ko‘rsatadi. Faqat joylardagi mas’ullar o‘z vazifasini vaqtida bajarsa, bas.

Endi chiqindini sotish mumkin

Ekologik muammolar haqida gap ketganda, chiqindilar masalasi kun tartibiga chiqishi tabiiy.

yopiladi. Ularning atrofida terak, tut, gujum, zarang ekib, yashil belbog‘ barpo qilinadi.

Dunyo tajribasida chiqindilarni qayta ishlash orqali ham poligonlar to‘lib ketishining oldi olinadi. Yangi tizim orqali biz ham qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirishimiz zarur. Chiqindini ishlash chiqarishga yo‘naltirishning dastlabki qadami siz bizzdan boshlanadi. Ya’ni biz chiqindini saralab, belgilangan rangdagi qutlarga tashlashimiz kerak. Bu borada juda ko‘p targ‘ibot ishlari olib borilyapti. Ammo kutilgan natijaga erishish oson bo‘lmayapti. Endi buni izga solish uchun ko‘p qavatli uylarda aholini chiqindini saralagan holda tashlashga rag‘batlantiradigan tizim joriy etiladi. Buning uchun Ekologiya jamg‘armasi hisobidan maxsus chiqindi qoplari bepul beriladi. Aholi chiqindini belgilangan toifaga ajratib, shoxbochaga olib boradi. Tadbirkorlar esa qayta ishlanadigan foydali chiqindini aholidan sotib oladi. Yangi tizim birinchi bosqichda Toshkent, Andijon, Buxoro, Termez, Angren shaharlari va Toshkent tumanida yo‘lga qo‘yiladi.

Maqola avvalida, yer va inson o‘rtasida o‘xshash jihatlar ko‘pligini aytdik. Darhaqiqat, inson yerning kichik nusxasiga o‘xshaydi. Shuning uchun ham odam tabiatga qanday munosabatda bo‘lsa, uning aksi o‘z vujudida ko‘rinadi. Tarix tabiatni mensimay qo‘ygan qavmlar orasida og‘ir kasalliklar keng tarqalganiga ko‘p bora shohidlik beradi. Shunday ekan, bugun ekologik masala atrofida barchamiz birdek jipslashishimiz kerak.



**Raqamlashtirish**

# GLOBAL TARMOQDAGI KATTA BOZOR

## Jonli striming biznesi nima uchun jadal ommalashmoqda?

**Abdusattor ABDUMOMINOV,**  
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi ilmiy xodimi

**Anton KOSTYUCHENKO,**  
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari

**Bugun bozorlik qilish uchun bozorga, kiyim-kechak yoki biron texnika xarid qilish uchun savdo markaziga borishning hojati yo'q. Buning uchun kompyuter, planshet yoki telefoningiz tugmasini bosib buyurtma qilsangiz kifoya, mahsulot qisqa vaqt ichida uyingizga yetkazib beriladi. Bu taraqqiyot mevasi, ya'ni raqamli oldi-sotdi jarayonlarining bir ko'rinishi sifatida kundalik hayotimizga allaqachon singib ulgurdi. Elektron savdo ulushi jahon bozorida borgan sari ortib bormoqda. Xususan, raqamli marketing maydonida biznes egalari uchun auditoriya jalb qilishning samarali jonli striming usuli bugun juda ommalashgan.**

Jonli strimingda mahsulot taqdimoti to'g'ridan to'g'ri o'tkazilib, kuzatuvchilarni mahsulot yoki xizmatni xarid qilishga undovchi ta'sirlar oshiriladi. Shu bois, endi undan elektron tijoratni rivojlantirish uchun yangi avlod reklamlari sifatida keng foydalanilayotgan. Bu tushuncha qanday paydo bo'lgan? 2016-yil may oyida Alibaba kompaniyasi tomonidan Taobao Live platformasi taqdim etilishi elektron savdo sohasini yangi pog'onaga olib chiqdi. Gap shundaki, Xitoyning chakana savdo giganti jonli translyatsiyani elektron tijorat do'konlari bilan bog'lab, iste'molchilarga bir vaqtning o'zida tomosha va xarid qilish imkonini yaratdi. Jonli efir tezda xaridorlarning faolligini oshirish va sotishni ko'paytirish uchun ishonchli raqamli vositaga aylandi. Shu-shu elektron savdoda mazkur usul jadal o'rin egallab kelmoqda.

oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy elektronika, mebel hamda uy dekoratsiyasi jihozlari turadi.

Jonli striming vositasidagi elektron tijorat keskin o'sishiga COVID-19 pandemiyasi ham turki bo'ldi. Iste'molchilar lokdaun tufayli do'konlarga kelolmadi, ammo onlayn sotib olishni davom ettirish talabi mavjud edi. Jonli translyatsiyalar odamlarga jismoniy do'konidagi kabi o'zlarini qiziqitirgan mahsulotlar haqida savollar berishga imkon yaratdi.

Jonli strimingning afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

— mijozlar bilan real vaqtda muloqot qilish imkonini mavjudligi bo'is, xaridorlarga individual yondashiladi va ular bilan mustahkam munosabatlar o'rnatiladi;

— an'anaviy savdo usullari bilan taqqoslaganda, iqtisodiy samaradorligi yuqori. Ya'ni vositachilar bilan bog'liq qo'shimcha xarajalar va foyda stavkalari chetlab o'tilib, iste'molchilarga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilinadi;

— yuqori konversiya darajasi (tashrif buyuruvchilarning xarid qilish ulushi);

— tanlovlar o'tkazish orqali qiziqarli savdo jarayonini tashkil etish imkoniyati va boshqalar.

Tadbiri jonli striming formatida tashkil qilish uchun kompaniyalar odatda iste'molchilarni tanlash qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan shaxs — jamoatchilik fikri yetakchisi (Key Opinion Leader) ni jalb qiladi. Muayyan sohada obro'ga ega bu kishi tomoshabinlarga kompaniya mahsulotlari va xizmatlarini qo'llab-quvvatlashini bildirib, xarid qilishga undaydi.

Formatidan qat'i nazar, jonli muvaffaqiyatli tadbirlar, o'yinlar, viktorinalar va sovrinli interaktiv o'yinlar orqali tomoshabinlarni jalb qilish savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jonli striming vositasidagi elektron savdolar juda tez globallashtirila bormoqda. G'arb davlatlari, jumladan, AQSH va Yevropa jonli striming tijoratiga e'tibor berish va imkoniyatlarini o'rganishni boshladi. Amazon va Alibaba kabi elektron tijorat gigantlari ham jonli striming imkoniyatlarini payqab, o'z platformalariga mazkur imkoniyatni qo'shgan.

Tahlillarga ko'ra, birgina Xitoyda 2022-yilda jonli striming savdosi hajmi 514 milliard AQSH

dollaridan ziyodni va barcha elektron tijorat sotuvlarining 17 foizdan ortig'ini tashkil etgan. Mamlakatda 2025-yilga borib, bunday savdo 843,9 milliard dollargacha yetishi kutilmoqda.

Xitoyning elektron savdo borasida boshqa davlatlardan farqli muhim jihati aholi ijtimoiy tarmoqlarga tijorat maydoni sifatida qarashidir. Ya'ni G'arb davlatlari yoki AQSHda ijtimoiy tarmoqlardan, birinchi navbatda, muloqot uchun foydalansa, xitoyliklar unga mahsulot sotib olish maqsadida kirishadi.

Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, Xitoy jonli striming orqali xaridlar ommalashuvi bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa egallagan. Shuningdek, Xitoyda foydalanuvchilar orasida oziq-ovqat mahsulotlari so'nggi 12 oy ichida eng ko'p sotib olingan toifa bo'lsa, Yevropa, AQSH va Lotin Amerikasida eng ommabop toifa kiyim-kechakdir.

AQSH va Yevropaning ko'plab brendlari ham mahsulotini Xitoyning jonli striming bozorida targ'ib qilishni boshlagan. Xususan, Instagram va Facebook onlayn translyatsiyasi orqali savdo qilish imkoniyatini ochdi, Tiktok va YouTube ham joriy yilda qo'shimcha jonli savdo funksiyalarini kiritmoqda.

Elektron savdoning jonli striming shakli rivoji mehnat bozorida katta o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ya'ni yangi turdagi yuqori daromadli mutaxassisliklar yuzaga kelyapti. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda jonli striming boshlovchilarning oylik daromadi 687-1374 AQSH dollarini tashkil etmoqda va natijada bu kasb xitoylik yoshlar orasida tobora ommalashib bormoqda.

Xarid qilish va filmlarga bo'lgan muhabati bilan mashhur bo'lgan Hindiston ham asta-sekin jonli striming tijorat konsepsiyasini qabul qilmoqda. Aholisi 1,4 milliarddan ortiq bu mamlakat daromadlari o'sib borayotgan o'rta sinf qatlami ortidan katta salohiyatga ega bozordir. Smartfonlar va internetga ulanishning keng tarqalishi hisobga olinsa, bu jonli savdo rivoji uchun ideal sharoit. Hindistonda jonli striming savdosining o'sish prognozlar 2025-yilga kelib, 5 milliard dollarga yetishi mumkin.

AQSHda jonli striming vositasidagi elektron tijorat sekinroq rivojlanib, ammo hozir u tobora kuchayib bormoqda. Mamlakatda tijorat chilar chakana sotuvlar uchun foydalaniladigan eng ommalashgan platforma Facebook Live hisoblanadi.

Umuman olganda, chakana savdoda elektron oldi-sotdi ulushi tobora ortib bormoqda. Prognozlariga ko'ra, global chakana elektron

tijorat hajmi 2022-yildagi 5,71 trillion dollardan 2025-yilga borib 7,4 trillion dollarga yetadi. Xitoy tajribasidan kelib chiqib baholansa, 2026-yilda 8,15 trillion dollarni tashkil qiluvchi global chakana elektron tijoratning 10-20 foizini jonli striming tashkil qilishi mumkin.

Jonli striming vositasidagi elektron tijoratning jadal o'sishida takomillashib borayotgan aloqa qurilmalari muhim o'rin tutdi. Endi smartfon egalari talab vaqtda va joyda onlayn xarid qilish va turli savdo maydonchalariga kirish osonlashmoqda.

GSMA Intelligencing so'nggi tahliliga ko'ra, hozir jahonda 5,56 milliard mobil aloqa abonentlari bor va bu dunyo nufusining 69,1 foizni tashkil etadi.

Kelajakda ushbu usul kengayib borishi bilan sog'liqni saqlash, mashinasozlik, moliya va vaqt o'tishi bilan B2B sektori kabi sohalarni o'z ichiga olishi mumkin. Hozirdanoq yetakchi texnologik kompaniyalarning bir qanchasi sog'liqni saqlash bilan bog'liq kontent va xizmatlarni, maslahat va uchrasuvlarni o'tkazish uchun jonli efir platformasidan foydalanishni rejalashtirmoqda.

Mamlakatimizda ham bu yo'nalishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, elektron tijoratni rivojlantirish strategiyasi qabul qilingan. Strategiya elektron tijorat kompaniyalari uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi, jumladan, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun salohiyat va ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu O'zbekiston kompaniyalariga moliyaviy oqibatlari cheklangan yangi bozorlarga kirish imkonini beradi va ularning biznes modellari, jarayonlarni rag'batlantiradi.

Yurtimizda axborot iqtisodiyoti va raqamli tijorat sektorining yalpi ichki mahsulot (YIM) dagi ulushi 2017-yildagi 2,3 foizdan 2022-yilda 3,4 foizga oshdi. Bunda elektron tijorat ulushi 35,1 foizni tashkil etgan (YIMdagi ulush 1,2 foiz).

O'zbekiston elektron tijorat ekotizimi va, umuman, raqamli iqtisodiyot rivojining dastlabki bosqichida bo'lsa-da, o'sishga hissa qo'shadigan qator omillar mavjud. Raqamlashtirish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur imkoniyatni yaratilmasini takomillashdirmoqda, axborot texnologiyalari parkini yaratish, raqamli to'lov xizmatlari va milliy onlayn bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar shular sirasiga kiradi.

Elektron tijoratda jonli strimingni rivojlantirishda raqamli infratuzilma qamrovini,

iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunchilik, elektron ma'lumotlar xavfsizligi va elektron to'lov tizimlari takomillashuvi katta ahamiyat kasb etadi.

Elektron tijorat qonunchiligi xavfsiz va adolati raqamli bozorni yaratishning muhim shartidir. U onlayn savdoning turli jihatlarni, jumladan, tranzaksiyalarni, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, maxfiylik va nizolarni hal etishni tartibga soluvchi qonunlar va siyosatni ishlab chiqish va qo'llashni o'z ichiga oladi. Elektron tijoratni tartibga solish uchun maxsus ishlab chiqilgan kompleks normativ-huquqiy baza yaratish lozim. U faqat raqamli savdoga xos bo'lgan onlayn bitimlar, elektron shartnomalar va boshqa huquqiy jihatlamini qamrab olishi kerak.

Internetda tuzilgan shartnomalarning qonuniy kuchini ta'minlaydigan elektron imzolarni autentifikatsiya usullarining haqiqiylikni tan oladigan qonunlarni takomillashdirmoqda muvofiq. Bunda iste'molchilarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlaydigan ishonchli himoya qilish qonunlari alohida e'tibor talab etadi. Kibertahdidlardan nafaqat iste'molchilar, balki elektron tijorat platformalari ham zarur ko'rinishi mumkin. Shu bois, onlayn tranzaksiyalarni himoya qilish uchun kibernetik xizmatlarni himoya qilish uchun kibernetik xizmatlarni joriy etilishi va xavfsizlik standartlari o'rnatilishi lozim.

Raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish elektron tijorat va uning tarkibiy qismi bo'lmish onlayn striming savdolari hajmi o'sishi uchun juda muhim. Raqamli infratuzilma aloqa, onlayn tranzaksiyalarni va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydigan kompleks texnologik asoslarni o'z ichiga oladi. Shahar va qishloq joylardagi korxonalar va iste'molchilar uchun yuqori tezlikda internetga kirishni ta'minlash hududlarda elektron tranzaksiyalarni oshishiga turki bo'ladi.

Aholining raqamli savodxonligi elektron xaridlarni amalga oshirish qobiliyatiga chambarchas bog'liq. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi ishlar ancha jadallashgan.

Bugun mamlakatimizda Uzum va Wildberries kabi platformalar o'z tarqatish punktlari qamrovini kengaytirmoqda. Mazkur jarayonni yanada faollashtirish yetkazish vaqti va qulayligini oshirish hamda aholi o'rtasida onlayn xaridlar madaniyatini shakllantirishga ko'mak beradi.

Innovatsion markazlar tashkil etilishi jonli striming tijoratining rivojlanishini sezilarli darajada rag'batlantirishi mumkin. Chunki u texnologiyalar, biznes modellarni rivojlantirish va elektron tijoratga xos tarkibni shakllantirish uchun sharoit yaratadi.

### Oramizdagi odamlar

**Qamashining Berdoli qishlog'ida dunyoga kelgan Dilfuza hali jayjigina qizaloqlikda ertangi hayoti qanday bo'lishi xayoliga ham kelmagandi. O'shanda u bir olam orzular bilan maktab ostonasiga qadam tashlash arafasida edi. Dugonalari qatori u ham tez kunda bilim dargohiga yo'l oladi. Buning uchun astoydil hozirlik ko'rilgan. Otasi olib bergan yangi liboslarni har kuni bir kiyib, oynaga qarashdan charchamaydi. Bolaligiga borib, hali maktab boshlanmasdanq maktabga borishga shoshilardi. Shoshqaloq qizning shiddatini ko'rgan otanasini uning kelgusida a'lochilari o'quvchilardan bo'lishini taxmin qilardi. O'zgacha shijoati, porlab turgan ko'zlar uning ilm olishga ishtiyoqi balandligidan dalolat berardi.**

...O'shanda odatdagi o'yingaroqlikmi yoki boshqa sabab, Dilfuzaning bir oz tobi qochib qoldi. Uy sharoitida, imkon darajasida davolashga harakat qilgan kattalar baribir shifokor maslahatini olmasa iloj yo'qligini anglatdi. Ne umidlar bilan shifoxonaga yo'l olishdi. Yosh qizchani obdon ko'rikdan o'tkazgan do'xtir davolanish zarurligini aytdi. Albatta, vrachning tavsiyasiga asosan, davolanishga rozilik bildirishdi. Muolajani boshlagan shifokorning birgina e'tiborsizligi sabab yosh qizaloqning oyoqlari butunlay ishlamay qoldi. Bundan xavotirga tushgan ota-ona qizini olib bormagan shifoxonasini qolmaydi. Qayerda yaxshi tabib va doktor bo'lsa, barchasidan maslahat olishadi. Ammo biror chora topilmaydi. Sog'lom oyoqlar yurishdan to'xtaydi.

Dilfuza birinchi guruh nogironi sifatida ro'yxatga olinadi. Doim sho'x-shodon yurgan qiz bundan butkul tushkunlikka tushib qoladi. Shunday bo'lsa-da, umidini so'ndirmaydi.

Uning bolalik orzulari bir damda sarobga aylanadi. Maktabga borish istagi ham shundan so'ng yo'qoladi. Keyinchalik bunga bir oz ko'nikib, qo'ltiqayoqda bo'lsa-da, maktabga borishga harakat qiladi. Lekin otasi bunga rozilik bermaydi. U boshqalar qatori xat-savod chiqarishdan bebahra qoladi. Uyda yolg'iz qolgan qizaloq qandaydir hunar o'rganishga



intiladi. Ammo u paytlar hozirgidek yaqin atrofda biror kasb-hunar markazi yo'q edi. Oradan ancha yillar o'tib, Dilfuza voyaga yetgach, televizor orqali Toshkent shahrida tikuvchilik o'quv markaziga qizlar ta'limi etilayotgani to'g'risidagi e'londan xabar topadi. Imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, poytaxtga borib, tikuvchilik sirlarini

o'rganishni maqsad qiladi. Imkon topib Toshkentga boradi va tikuvchilikni mukammal o'rganadi. Oradan ikki yil o'tgach, qishlog'iga muhbir hunar sohibasi sifatida qaytadi. Endi uning orzulari yuksak edi. Kelgusida o'zi kabi imkoniyati cheklangan qizlarga hunarini o'rgatishga bel bog'laydi.

## “BUGUN QACHON NAFAQA BERILARKAN, DEYA QARAB O'TIRADIGAN VAQT EMAS”

Maosh berib, ro'z'origa yordami tegadigan qildi, eng asosiysi, ularning hayotga mehriini oshirdi. Dilfuza opaning bu sa'y-harakatlari e'tirof etilib, hukumatimiz tomonidan “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

— Hunarli kishi xor bo'lmasligini o'zimiz misolida ko'rdim, — deydi Dilfuza opa. — Shu kasbim ortidan oilamiz but. Birovdan kam joyimiz yo'q. Har yili o'rtacha yuz million so'mdan ziyod daromad topaymiz. O'tgan yili shuning hisobidan turmush o'rtog'imga mashina olib berdim. Bu yil yanada yangi rejarlar ustida ishlayapmiz. Jumladan, bir oz sharoitimiz bo'lmay qolgan bo'is, faqat yoz faslida kasb-hunarga o'rgatib kelayotgandik, endi buni doimiy qilishga urinyapmiz. Biz uchun imkoniyatlar eshigi keng ochilar ekan, bundan faqat unumli foydalanishimiz lozim. Men kabi nogironlign bo'lgan fuqarolarni uchun bir qancha imtiyozlar berildi. Buni to'g'ri yo'lida ishlay boshlay boshladim. Bu haqda oldimga hunar o'rganish uchun kelganlarga ham ko'p aytaman. Shunchalik qulaylik bor ekan, bemalol daromad topish mumkin. Bugun qachon nafaqa berilarkan, deya qarab o'tiradigan vaqt emas.

Shijoatkor ayolning mehnatini ko'rib, tahsin aytmay ilojingiz yo'q. Birinchi guruh nogironi bo'lishiga qaramay, matonat bilan tadbirkorlik qilib, ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlashga hissa qo'shmoqda. Kelgusi rejarlari esa yanada ulkan. Bir so'z bilan aytganda, Dilfuza opaning mashaqqatli mehnati ortidan baxt topayotgani yetti munchasi sog' bo'lib, faqat nolishdan boshqani bilmaydigan kishilarga ibrat bo'lishi shubhasiz.

**Akbar RAHMONOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligiga



# MEHNATKASHLAR MANFAATLARINING ISHONCHLI HIMOYACHISI



**Hayotjon SHARIPOV,**  
*O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi maslahatchisi*

**Boshlanishi 1-betda**

Aslida, Turkiston o'lkasiga temir yo'llarning kirib kelishi 1900-yildan oldinroq boshlangan. 1880-yildan Kaspiyorti temir yo'li qurilishi boshlanib, 1885-yilda Ashxobodgacha, 1886-yilda Chorjo'ygacha, 1888-yil may oyida Chorjo'ydan Amudaryo ko'prigi orqali Samarqandgacha tortilgan. 1888-1900-yillarda Krasnovodsk — Toshkent, Chernyavevo — Andijon yo'nalishlari quriladi. Bunga alohida to'xtalayotganimizning boisi, yuqoridagi qurilish ishlarining barchasi oddiy ishchi-mehnatkashlar tomonidan emas, balki harbiy qismlar askarlari tomonidan amalga oshirilgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, 1800-1900-yillarda qurilgan temir yo'llarda ishchi-xizmatchilar ishtirok etmagan va ularning uyushmalari bo'lmagan.

Turkiston o'lkasidagi ilk kasaba uyushmalari noquylar mehnat sharoitlari hamda ishchi-xodimlarning iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga bog'liq noroziliklar oqibatida yuzaga kelgan. Bu — mehnatkashlar o'z huquq va manfaatlarini o'z qo'liga olib olishi uchun kurashganidan dalolat beradi. Xususan, ular ish haqi vaqtida to'lanmasligidan, haq to'lanmaydigan va qo'shimcha yoki bayram kunlaridagi ishlaridan norozi bo'lgan. Bularning barchasi ishchilarning keng doiradagi noroziligini keltirib chiqargan. Ular o'z shartlari bajarilishini talab qilgan holda vaqti-vaqti bilan zavod va temir yo'llarda noroziliklarini bildirgan.

Masalan, 1905-yil fevralida O'rta Osiyo temir yo'lining Toshkentdagi bosh ustaxonasida yirik norozilik o'tkazilgan. Bu Farg'ona vodiysida ham shunday harakatlarga sabab bo'lgan. Ishchilarning noroziliklari va ularning oqibatlarini haftalik gazetalarda yoritib borilgan. “Turkestanskiye vedomosti”da yozilishicha, 1905-yil fevralda Orenburg — Toshkent temir yo'lining taxminan 400 ishchisi va O'rta Osiyo temir yo'lining Toshkent bosh ustaxonalarining taxminan 800 ishchisi ana shunday noroziliklarini namoyish qilgan.

Ishchi va xizmatchilar rahbariyat oldiga sakkiz soatlik ish kunini joriy etish, bayram-

oldi ish kunlarini kunduzi soat 12 ga tugatish, 19-fevral va 1-may kunini bayram kuni sifatida hisoblash, ish vaqtidan tashqari ishlashga faqat istisnoli holatlardagina yo'l qo'yish, unda ham ishdan tashqari ishlash miqdori yiliga 120 soatdan oshishiga yo'l qo'yamaslik, ishdan tashqari ishlangan bir soatni ikki soat, tungi ishlarni uch soat sifatida qabul qilish, xizmat safarlari vaqtida ish haqini bir yarim barobar etib to'lash, safardagi to'liqsiz sutkan o'tiq bir sutka etib belgilash kabi 19 banddan iborat talab qo'yishgan.

Yuqoridagi talablardan ko'rinib turibdiki, o'lkamizda kasaba uyushmasi rasman tuzilishidan oldin, avvalo, uning ilg'or g'oyalari ishchi va xizmatchilar ongiga tafakkurida yetilib kelgan.

Bu talablarning ayrimlari qanoatlanirilgan bo'lsa, tez orada temir yo'lichilarning noroziliklari tugatiladi va ular ishini davom ettiradi. “Samarqand” gazetasining 1905-yil 10-iyun sonidagi “Temir yo'l xizmatchilari uyushmasi” sarlavhali maqolada umumrossiya temir yo'llari tizimidagi turli kasb egalari, ishchi va xizmatchilarni qamrab olishga va birlashtirishga qodir bo'lgan kasaba uyushmalarini tashkil etish zarurati yuzaga kelgani bayon etilgan. Shuningdek, kasaba uyushmasining maqsadi demokratik g'oyalarning hayotda ustuvorlik kasb etishini ta'minlagan holda barcha temir yo'l xizmatchilarining moddiy, huquqiy, madaniy va mehnatga oid manfaatlarini himoya qilishdan iborat ekanini aytiladi.

Shu o'rinda mazkur maqolaning “Samarqand” gazetasida chop etilishining o'zini, Turkiston o'lkasida ham kasaba uyushmalarini tashkil etishga bo'lgan to'laonli ehtiyoj yetilib kelganini ko'rsatish bilan birga, o'lkada kasabachilik harakatining kuchayishiga xizmat qilganini e'tirof etish mumkin.

1905-yil 14-oktabrda Turkiston temir yo'lining ishchi va xizmatchilari yana bosh ko'taradi. Ularga boshqa korxonalarining ishchilari, temir yo'l batalyonlari askarlari, hatto Amudaryo flotiylarining matroslari ham qo'shiladi. Biroq 19-oktabr kuni chor hukumati namoyishchilarni yoppasiga otib tashlaydi.

Dekabr oyining boshiga kelib, temir yo'lichilarning noroziliklari to'xtaydi. Va nihoyat, 1905-yil 13-20-dekabr kunlari O'rta Osiyo temir yo'llari ishchi va xizmatchilarining 1-qurultoyi bo'lib o'tadi. Qurultoy 1906-yil yanvaridan boshlab 8 soatlik ish kunini belgilash to'g'risida qaror qabul qiladi.

1906-yil 1-iyulda Toshkentda O'rta Osiyo va Orenburg — Toshkent temir yo'lichilarning birinchi Turkiston birlashgan qurultoyi bo'lib o'tadi va unda Temiryo'lichlar kasaba uyushmasining nizomi qabul qilinadi. Ayni paytda mana shu hujjat O'zbekiston kasaba uyushmalari tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1904-1905-yillarda tashkil etilgan ba'zi uyushmalar, garchi “kasaba uyushmasi” nomi bilan atalmagan bo'lsa-da, tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad

va vazifalari aynan kasaba uyushmasi bilan bir nuqtada kesishadi.

Ko'rinib turibdiki, ishchi-xizmatchilarning haq-huquq va manfaatlarini himoya qiladigan uyushmalar tuzish zarurati nafaqat poytaxtda, balki boshqa hududlarda ham asta-sekin yuzaga kela boshlagan.

1905-yil boshida Turkiston o'lkasining pochta-telegraf xizmatchilari ham o'zaro birlashish hamda o'zlarining og'ir iqtisodiy va huquqiy ahvolini yaxshilash maqsadida dastlabki harakatlarni boshlagan edi. Arxivdan topilgan “Turkiston o'lkasida Pochta-telegraf uyushmasini tashkil etish tarixi haqidagi” telegramma va hukumatga yuborilgan imtinosnomaning xomaki loyihasida (ularning asl nusxalari topilmagan) quyidagi jumalar bitilgan:

“1905-yilning 23-oktabrida Turkistonlik-larga Butunrossiya Pochta-telegraf uyushmasini tashkil etishda ishtirok etish taklif yuborildi. Mazkur taklifnoma Toshkentdan butun Turkiston muassasalariga jo'natildi.

24-oktabrda Toshkentda 100 kishi ishtirokida pochta-telegraf ishchilarning umumiy yig'ilishi bo'lib o'tadi. Yig'ilishda Pochta-telegraf ishchilari Toshkent idorasi, temir yo'l orqali pochta tashish XII bo'lami va okrug boshqarmasi vakillari ishtirok etadi. Majlis boshlanishiga qadar okrugdagi aksariyat muassasalar yig'ilishlarda siyosiy mavzuda so'z yuritilmasligi sharti bilan Pochta-telegraf uyushmasi bilan birlashishga rozilik bildiriladi.

Ummuniy yig'ilishda Pochta-telegraf uyushmasining Turkiston bo'limini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Mazkur bo'lim ishlarini boshqarish uchun qo'mita saylanadi.

Ummuniy yig'ilishlarda pochta-telegraf uyushmasiga qo'shilish bilan bir vaqtda imtinosnoma va qarorlar qabul qilinib, unda Toshkent delegatlariga yuqori turuvchi organlarga umumiy ariza bilan murojaat qilish huquqi beriladi. Ushbu murojaatda Turkiston o'lkasi aloqachilarning moddiy ahvoli va irligi ko'rsatilib, mehnat sharoitlarini yaxshilash va oilik ish maoshlarini oshirish talabari ilgari suriladi.

Ular ish haqini 50 foizga, qo'shimcha to'lovlarni (oshxona, uy-joy, xizmat safarlari puli va h.k.) oshirish, ishchi-xodimlar sonini ko'paytirish va ish vaqtini qisqartirishni, xizmat muddatini va ish smenalarini qisqartirishni, har yili oylik to'lanadigan ta'tillarni joriy qilish va nafaqalarini oshirishni talab qilishadi.”

Shu tariqa 1905-yil 24-oktabrda Toshkentdagi aloqa xodimlari yig'ilishida Turkiston Pochta-

telegraf uyushmasi tashkil etiladi. Yig'ilishda Butunrossiya Pochta-telegraf uyushmasiga “ma'naviy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish asosida” qo'shilish va “uyushma bo'limi ishlarini boshqarish uchun qo'mita” saylash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

“Turkestan”, “Turkestanskiye vedomosti” va “Russkiy Turkestan” gazetalarining 1905-1907-yillardagi ba'zi sonlarida chop etilgan ma'lumotlar ham o'sha kezlal yuqoridagi tilga olingan kasaba uyushmalari tuzilganini tasdiqlaydi.

“Turkestan” gazetasining 1906-yil 29-avgust sonida o'sha kuni soat 9 da Sinsadze sirkida Tikuvchi va etikdo'zlar kasaba uyushmasining ta'sis majlisi bo'lib o'tilgan ma'lum qilinadi.

31-avgust kuni soat 4 da esa umumiy majlislar zalining qishki binosida Ofitsiant, oshpaz va uy xizmatkorlari kasaba uyushmasi a'zolarining umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon chop etiladi. Kun tartibiga tasdiqlangan nizom o'qilishi, boshqaruv va taftish komissiyasi nizomlarini tasdiqlash, boshqaruv a'zolarini va ularga nomzodlarni saylash, taftish komissiyasi

etiladi. Nashrning keyingi sonlarida uyushma tashkil etilgan ilk kunlarda uning kassasiga kelib tushgan badallar haqida so'z yuritiladi.

Mazkur gazeta yozilishicha, 1906-yil 17-sentabr kuni etarab soat 9 da Sinsadze sirkida Quruvchilar kasaba uyushmasining ta'sis majlisi o'tkazilgan. Unda binokorlar so'nggi paytlarda ish vaqtidan tashqari qo'shimcha ishlashga to'g'ri kelgani, ammo shunga yarasha haq o'lmagani ta'kidlangan. Bunga o'xshash holatlar zudlik bilan quruvchilar kasaba uyushmasini tuzish zaruragini isbotlagani urg'ulanadi. So'ngra uyushma nizomi moddama-modda ko'rib chiqiladi hamda hukumatga birja va uyushma haqida rasmiy imtinosnoma bilan chiqadigan komissiya a'zolari saylanadi.

“Vpered” gazetasining 1906-yil 17-sonida shunday xabar chop etilgan: “1907-yilning 20-25-yanvar kunlari Moskvada feldsher va hamshiralarning Butunrossiya birinchi qurultoyi bo'lib o'tadi. Toshkentdagi feldsherlik ishining ayol xodimlaridan biri bizning ta'biriyatimizga murojaat yo'llab, o'zining hamkasbi o'rtog'larini o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmalariga birlashishga chaqirdi. Bundan



a'zolarini va ularga nomzodlarni saylash, smetani tasdiqlash va amaldagi ishlarga daxldor masalalar kiritilgandi.

1906-yil 5-sentabrda Ofitsiant, oshpaz va uy xizmatkorlari kasaba uyushmasi boshqaruv a'zolarining birinchi majlisi bo'lib o'tadi. Bu uyushmaga 70 kishi a'zo bo'lgan va tez orada ularning soni ortishi kutilgan edi. Chunki bu tarkibga nafaqat uy xizmatkorlari, balki mehmonxonalar, turli oshxona, ustaxona va boshqa joylarda ishlaydigan xizmatkorlar hali kiritilmagan edi.

“Turkestan” gazetasining 1906-yil 1-sentabrdagi sonida 3-sentyabr kuni soat 9 da Sinsadze sirkida Matbaa ishchilari uyushmasining ta'sis majlisi bo'lishi to'g'risida e'lon berilgan bo'lsa, “Turkestanskiye vedomosti”ning 1906-yil 21-oktabrdagi sonida, “Turkestanskiy kuryer” gazetasida ma'lumotiga tayanilgan holda, Sirdaryo harbiy gubernatori Matbaa xodimlari kasaba uyushmasi nizomini tasdiqlagan haqidagi xabar yoritilgan. Mazkur uyushma mablag'lari a'zolikka kirish to'lovlari, yillik, oylik va bir martalik badallar, kapital foizlari hamda xayriyalar hisobidan shakllantirilgan.

“Noviy put” gazetasining 1906-yil 8-iyul sonida Toshkent Mexanika ishlab chiqarish zavodi ishchilari kasaba uyushmasi tuzilgani xususidagi xabar bosiladi. “Turkestan” gazetasining 10-sentabr sonida esa rasmiy ruxsat etilgan mexanika ishlab chiqarish shahar ishchilari kasaba uyushmasi a'zolarining birinchi umumiy yig'ilishi bo'lib o'taganiga doir ma'lumot chop

umid qilish mumkinki, albatta, toshkentlik tibbiy yordam xodimlari — feldsher va hamshiralarning uyushma o'z delegatlarini yuboradilar”.

O'sha paytlardayoq Turkiston kasaba uyushmalari o'z faoliyatini yanada rivojlantirish, kasaba uyushmalari a'zolarini zarur bilim va ko'nikmalar bilan qurultirish maqsadida kutubxonalar ochgani o'lkada kasaba uyushmalariga bo'lgan e'tiborni yuqori ekanidan dalolat beradi.

“Vpered” gazetasining 1906-yil 17-sonida bu to'g'rida shunday e'lon keltirilgan: “Kasaba uyushmasi o'rtog'lariga xabar qilamiz! Tikuvchilar, poyabzalchilar, shapkachi va shlyapachi hamda boshqa tikuvchilarni kutubxona ochilishiga taklif qilamiz”.

Ko'rinib turibdiki, 1906-yildayoq kasaba uyushmalari g'izlarining ilk kutubxonasi ega bo'lgan. “Vpered” gazetasining 1906-yil 10-noyabr sonida berilgan qiziq bir materialda kasaba uyushmasi ishchi-xizmatchilarning to'laonli himoyasiga aylangan va ishchilarga kirganini ko'rsatadi. Xabarda aytilishicha, Harbiy-iqtisodiy jamiyatning mundir tikish ustaxonasining barcha usta tikuvchilari murojaat qilish uchun ish joylarini tashlab, Toshkent tikuvchilar kasaba uyushmasiga ketib qolganlari yoritilgan. “Hozirgi vaqtda tikuvchilar kasaba uyushmasi bichuvchi o'rtog' Kaplanning (salbiy) xul'q-atvori yuzasidan ma'muriy yuzaga bildirish (chora ko'rish) tashabbusini allaqachon o'z zimmasiga olgan”.

Aytilgan fikrlarni mazkur gazetaning 1906-yil 5-noyabrda chop etilgan Idora xizmatchilari va buxgalterlari kasaba uyushmasi kengashi faoliyati haqidagi axborot ham tasdiqlaydi. Qayd etilishicha, ushbu kasaba uyushmasi idora xizmatlari bilan band bo'lgan xodimlarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida kasaba uyushmasi a'zolari o'rtasida 20 banddan iborat so'rovnomalarni tarqatgan. Bu boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining pasportini tuzishda ham muhim qadam hisoblanadi. Unda xodimlarning ism-sharifidan tashqari ish soatlari, ta'til kunlari, mukofot (ustamajlari) haqida ham aniq ma'lumot berish so'ralgan.

Xulosa qilib aytganda, butun jahonda bo'lgani kabi Turkistonda ham kasabachilik harakatining vujudga kelishi va keng yoyilishi chor hukumati bosimi ostida ezilgan o'lka ishchi-xizmatchilarining toptalgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida yagona najot kemasi vazifasini o'taganiga shubha yo'q.

## Yoshlar — kelajagimiz



**Bayramboy YERIMBETOV,**  
*pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor*

Filialimizda sport faoliyati, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport, psixologiya (sport) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlanadi. Shuningdek, xizmatlar va sog'lomlashtirish tarmoqlarini rivojlantirishning ilmiy-

# TA'LIMGA E'TIBOR G'ALABA ESHIKLARINI OCHGAY

**Qoraqalpog'istonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida ko'zni quvontiradigan ishlar qilinmoqda. Bu o'zgarishlarda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialining ham baholi qdrat hissa bor.**

texnologik vazifalarini hal etish, ilg'or xorijiy tajribadan foydalanishda sport sohasiga yo'naltirilgan tadqiqotlar qilish va ishlanmalarni amalga oshirish ham muhim vazifalarimiz sirasiga kirgan.

Filial faoliyatini 2019-2020-o'quv yilida kunduzgi, sirtqi, maxsus sirtqi ta'lim shakllarida voleybol, boks, dzyudo, erkin kurash, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya va sport, badiiy gimnastika hamda eshkan eshish yo'nalishlarida tahsil oluvchi 50 talaba bilan boshlagan edi. Bugungi kunda esa talabalar soni mingdan oshdi.

Filialda 71 professor-o'qituvchi ta'lim berib kelmoqda. So'nggi uch yil davomida mustaqil izlanuvchi sifatida jami 34 o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy izlanishlar qilyapti. Joriy yil 5 mustaqil tadqiqotchining doktorlik dissertatsiyasi himoyasi rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda filialda 14 nafar jahon, 21 nafar Osiyo, 49 nafar O'zbekiston chempioni tahsil oladi. Bir talabamiz Parij Olimpiadasiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi.

Shuningdek, milliy sport musobaqalarida ham filial talabalari o'z mahoratini namoyish etib kelayotir. Jumladan, “Universiada — 2020” sport musobaqalarida jami 16 ta (1 ta oltin, 9 ta kumush va 6 ta bronza) medal qo'lg'a kiritildi. “Universiada — 2022” musobaqalarida esa basketbol bo'yicha filial terma jamoasi Qoraqalpog'iston tarixida birinchi bor oltin medalni qo'lg'a kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Bugungi kunda ta'lim muassasamizda “Quvnoqlar va zukkolar”, “Kitobxonlik”, “Qobiliyatli qizlar”, minifutbol, voleybol, stol tennis hamda “Zakovat” intellektual to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda.



Shuningdek, talaba yoshlar o'rtasida “Birgalikda kitob mutolaa qilamiz”, “Zakovat”, “Besh ming qadam”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Munozara” ma'naviy-ma'rifiy tanlovlari hamda “Korrupsiyaga qarshi

birgalikda kurashamiz”, “Giyohvandlik — asr vabosi” mavzusida rasmlar tanlovlari ham o'tkazib kelinadi. Filialning tarmoq korxonalar bilan tizimli aloqasi bo'yicha “Karyera markazi”

tashkilotlari bilan hamda talabalarga, ayniqsa, bitiruvchi yoshlarga hozir mavjud bo'lgan va mehnat bozori talab qilayotgan bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot berib boradi. Markaz bo'sh ish o'rinlari uchun talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar bilan ularni xabardor etib borishni asosiy vazifa qilib belgilagan.

Prezidentimizning 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, filialda 2023-2024-o'quv yilidan boshlab “Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)” bakalavriat ta'lim yo'nalishiga kamida ikkinchi sport razryadiga ega bo'lgan abituriyentlar qabul qilinishi belgilandi. Buning natijasida sport faoliyati bo'yicha ta'lim yo'nalishlariga yetuk va malakali sportchilarni jalb qilish imkoniyati vujudga keldi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialida talabalar uchun barcha shart-sharoitlar mujassam qilingan. Zero, ular sifatlari bilim olishi, malakasini oshirishi va dunyoni o'z g'alabalari bilan zabt etishi kerak.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda sha' nimiz, g'ururimiz — ayol zotini sun'yilashirishga urinish aks etgan fikrlar tarqalyapti. Ayolni o'z joybasi — iftidan ayirmoqchi bo'layotganlar haqlik talabidan to'xtab, bir lahza o'yab ko'rsa, yaxshi bo'lardi: ular o'zlari bilib yo bilmay erkak va ayol tabiati o'rtasidagi devorlarni yiqitish havasidamasmi? Bu ularning hamma bir xil fikrlashiga qarshi ekanlik da'volariga qanchalar mos?..



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

Mulohaza

Ayol bashariyat uchun hayot zulmatini yorituvchi, unga rang kiritib, ma'no ulashuvchi bebaho in'omdir. Shuning uchun insoniyatning eng mashhur fikr egalari ayol sha'niga tahsin o'qiydi. Jumladan, Alisher Navoiy bobomiz "jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin", deya lutf etgan.

Men gulni ifori bilan ko'rishni istayman. Olovning issiqliciga, muzning sovuqligiga qolishini istayman. Ayolning ham o'z jinsiga xos go'zal tug'ma xususiyatlardan mosuvo bo'lmasligi, ibo degan, hayo degan, nazokat degan fazilatlariga ega bo'lishi tarafdoriman. Nomusni eng so'nggi qurbon deb bilgan o'xshashi yo'q o'zbekni ham o'z yutuq-kamchiliklari bilan yaxshi ko'raman. Juda-juda yaxshi ko'raman!..

ENG QIMMAT BOYLIK — MA'NAViy QIYOFA

U yo'qolgan nuqtadan fojialar boshlanadi

tabalaridan biri shuki, u hayot haqiqatiga zid kelmasligi lozim. Yo'qsa, ish buziladi: asar o'quvchilarni zavqlantirmaydi, o'ziga tortolmaydi. Bundan chiqdi — IX asrda Turkistonning 16-17 yashar qizlarining ko'pchiligi Qodiriy tasvirlagan Ra'no kabi yuksak bilimiga ega bo'lgan. Ehtimol, uning bilimlari o'z davri uchun biz maqtayotgan darajada yuksak bo'lmasligi ham mumkin. Agar yanayam shubha tug'lsa, men temuriylar sulolasidan Saroymulkxonim, Shodimulkxotun, Gavharshodbegim, Xadichabegim, Xonzodabegim kabi tarixda o'chmas iz qoldirgan malikalarni eslashingizni so'rayman. Bular hali bir sulolaga mansublari. Qolaversa, dunyo adabiyotida juda katta "portlash" qilgan Sharq adabiyotining ayol namoyandalari — Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Anbar Otin singari shoirialarni sanasak, sanog'iga yetish mushkul.



buyam kamday, boshqalarni-da bunga chaqirish — nodonlik. Ayniqsa, ziyolilar uchun, o'zini ziyoliman, deb bilgan odamlar uchun! Bultur interneta xorijlik bir ijodkor bilan gaplashib qoldik. Gap orasida u o'zbek ayollari haqida yomon xulosada ekanini sezdirib ko'ydi. O'zbek ayollari nomus masalasiga o'z ayollarichalik talabchan emasligi to'g'risidagi fikrni boxosdan yozib, shosha-pisha o'chirganida, men uni o'qishga allaqachon ulguragan va bu yangilikdan dahshatga tushayotgan edim. Axir u ko'rgan ikkita ayol shunaqaroq bo'lsa, bundan hamma ayollar bir xil, degan xulosa yasash kerakmi? Bu uning davlatiga ishlash uchun bormagan, ijtimoiy tarmoqlarda o'zini tanitmagani, qisqasi, parda ortida qolayotgan son-sanocsiz ayollarimizga — buvlarimiz, onalarimiz, opa-singillarimiz hamda qizlarimizga nisbatan juda katta adolatsizlik emasmi? Men o'zlasim o'zlasim shunaqaroq ko'rib, halol mehnati bilan ham bolalarini boqayotgan, ham bemor eri davolatayotgan ayollarimizni bilaman. Eri erta olandan o'tsa-da, qiz farzandiga boshqa erkak otalik qilishiga ko'zi yetmagidan yangi turmush qurilayotgan ayollarimizni bilaman. Chet elga ishlagan ketgan erini o'n besh yillab kutayotgan, erim qaytasa bolalarimizni uyaylmiz, elga katta to'y beramiz, deb o'zini ovutib yashayotgan ayollarimizni-da bilaman. Sizningcha, ularni qabih ishdan, eriga yo farzandiga xiyonatdan nima to'xtatib turibdi? Ana o'sha narsa nomus emasmi? Nimaga o'zimizda yo'q narsani o'lama yo'q, deb hukm chiqarishimiz kerak? Bunga qay darajada haqdormiz?!

uyg'otmoqchi bo'ladi. Chunki hamma fojialar ibtidosi aynan qiyofasizlik boshlangan nuqtadir. Qiyofasizlik boshlanganda yuzakilik, so'zbozlik, manfaatparastlik, benomuslik avj oladi. Demak, ma'naviy qiyofani saqlab qolish ertasiyan umidi bor har bitta shaxsning ham, millatning ham bosh maqsadiga aylinishi zarur. Bugun davlatlar bir-biriga qarshi kura-shishning intellektual yo'lini tanlayotgan, raqiblarini vujudidan "men"ni sug'urib olish orqali o'ldirayotgan bir davrda o'zlikka intilish nafaqat biz, balki butun dunyo mamlakatlari uchun birday dolzarb. Bu kurashda fikrolvchi jamiyatga yutadi. Chunki xalqlar uchun moddiy boyliklar o'z ahamiyatini allaqachon yo'qota boshladi. Eng qimmat ma'naviy boylik ham, moddiy boylik ham bugun odamning o'zi. Millat vakili sifatida o'z ma'naviy qiyofasiga — o'zligiga ega bo'lgan odamning o'zi. Shunday ekan, G'arbiy tashviqotga berilish, bir masaladagi dumini yo'qotgan tulki boshqalarni ham undan kechishga chaqirgani singari undovlariga aldanish oqibatini tanazzuldir. Bu qadimimizni suyb turgan ustunlarini o'z qo'limiz bilan birma-bir qulatishdir.



Bayram ALI, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Shu tufayli bo'lsa kerak, bizda ayol kishining dunyoqarashi keng bo'lishiga, o'z davri ilmlarini chuqur egallashiga azaldan e'tibor qaratilgan. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridan olingan ushbu parcha bunga bir misol: "Ra'no Nigor oyimning to'ng'uchi, bu yil o'n yetti yoshni to'lduradi. Savodni otasidan o'qub, o'n to'rt yoshida ibtidoiy maktab pro'gramida bo'lgan barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan — "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob", "So'fi Olloyor", "Maslaki muttaqin", adabiyotdan — Navoiyning barcha asarlari, devoni Fuzuliy ma'a Layli Majnun; Amiriy, Fazliy va shulardak chig'atoy-o'zbek katta shoiralarining asarlari; forsiydan — Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil, husni xat, insho va boshqalar. Bu kunlarda bo'lsa, bir tomondan, qizlarga saboq berib onasiga ko'maklashsa, ikkinchi tarafdin, o'tasida kofiya (arab nahv va sarf) hamda Shayx Sa'diyming "Guliston'idan dars oladilar va shuning qatorida o'zi yaxshi ko'rgan chig'atoy-o'zbek shoiralarining badi'a asarlaridan alohida bir majmu'a tuzib yurirydi...".

Shuningdek, Imom Buxoriy, Forobiy, Ibn Sino kabi dunyo tan olgan alomalarimizning nomi esga olinganda, albatta, ularning onalari ham yod etiladi. Sababi, bu barcha alomalar o'z onasini birinchi ustoz, deb bilgan. O'sha davr uduhi, taqvo onalar ismini harflarda bitishga yo'l qo'ymay, ular nomi bizgacha yetib kelmagan esa-da, buyuk alomalar agar volidasining teran bilimi, zahmatlari bo'lmaganida o'zining olim bo'lib yetishmasligiga iqror bo'lib, bot-bot zikr etgan. Bu bizda ayol azaldan ham jamiyatda, ham ilmida o'z o'rniga ega bo'lgan, deyshimizga muayyan darajada asosdir. Ularning bilimini, ijodkorligini namoyon etishga biz tasavvur qilgan darajada to'siqlar bo'lmagan. Agar ayollarga nisbatan qaysidir majburiyatlarda qattiqroq turilgan bo'lsa, bunga o'sha davr nuqtayi nazarini bilganlarga qaramoq lozim. Holbuki, eski davrlar ko'zi bilan boqqanda g'alati, mantiqsiz tuyuladigan odatlarni, tan olaylik, bugungi jamiyatda ham oz emas... Tabiat bizdan ko'ra dono. U hamma narsani o'ziga xosligi bilan tartiblaydi. Shuning uchun qayerda tabiat qonunlariga qarshi turish bo'lsa, o'sha yerda fojia bor. Luqmon bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida tap-taqir cho'lni o'zlashtirib, ekin ekmoqchi bo'lgan odamlar tasvirlanadi. Ayni

paytda esa asar bosh qahramoni Lolaxonga nisbatan ham shunga o'xshash munosabatlar kechayotgan edi. 41-sovxo azli eri olandan o'tgan oddiy bir ayoldan "vafo ma'budasi" yasashga va undan ma'budalarga xos xislatlarni talab qilishga kirishib ketgandi. Ham yerni, ham insonni sun'yilashirishga, o'z tabiatiga qarshi borishga undaydigan harakatlarning oqibati nima bilan tugaydi? Yer sho'rlab, tuprog'i buziladi. Eng yomoni, o'sha sho'r tuproqda Lolaxon zavol topadi... Bugun ijtimoiy tarmoqlarda sha' nimiz, g'ururimiz — ayol zotini sun'yilashirishga urinish aks etgan fikrlar tarqalyapti. Ayolni o'z joybasi — iftidan ayirmoqchi bo'layotganlar haqlik talabidan to'xtab, bir lahza o'yab ko'rsa, yaxshi bo'lardi: ular o'zlari bilib yo bilmay erkak va ayol tabiati o'rtasidagi devorlarni yiqitish havasidamasmi? Bu ularning hamma bir xil fikrlashiga qarshi ekanlik da'volariga qanchalar mos?.. Fikrning eskiligi uning haqiqatga yaqin ekanini belgilovchi mezon emas. Noning kesagi bo'lgani kabi millatimizning ham qon-qoniga singib ketgan ayrim eski tushunchalar borki, bugun ularni qaytadan ko'rib chiqsak, bu

kabi salbiy qarashlardan millat ongini tozalasaq, hammamizga manfaatlil bo'ladi. Birgina "kattalarning oldida gapirma" iborasi va o'zbek jamiyatida otilan kichik yoshli a'zolari fikri bilan qiziqilmasligi, doimo g'ashimni keltirgan. Ammo "ommaviy madaniyat" degan halo dunyo mamlakatlari navbati bilan tor-mor etayotgan, ular tomonida ommaning odatlari, qiliqlari ko'r-ko'rona qabul qilinayotgan bir paytda millatimizning katta boyligi sanalimish — asrlar sinovidan o'tgan, bizning milliy o'zagimiz bo'lgan asl qadriyatlarini saqlab qolishga urinish lozim emasmi? Ziyolilar ayni shu dolzarb lahzalarda milliylik, qadriyatlarining himoyasida har doimgidan qattiqroq turishi kerak emasmi? G'arbiy "olabo'ji" deysish fikridan yiroqman. Ba'zi birovlar o'xshab "u tomonlarda chirigan, baxtsiz odamlar yashaydi", deysish ham kulgili bo'lar edi. Chunki inson yaratilganda qisimatiga oq-qora kunlar bitib qo'yildi. Demak, baxtli va baxtsiz odamlar hamma yerda bor. Biroq ularga ortiqcha taassub qilisish, "shunday qilsam, yevropaliklarga o'xshayman", deya xalqimiz uyat sanagan, aytishga nomus qilgan beparda so'zlarni ijtimoiy tarmoqlarda baralla gapirish, nomusni og'ir yuk deb bong urish,

Mayli, "Nomus yukmi?" deya avj olayotgan muhokamalar bilan ham bu texnologiya ishga tushdi, deb vahima qilishga shoshmaymiz. Ammo men... Men gulni ifori bilan ko'rishni istayman. Olovning issiqliciga, muzning sovuqligiga qolishini istayman. Ayolning ham o'z jinsiga xos go'zal tug'ma xususiyatlardan mosuvo bo'lmasligi, ibo degan, hayo degan, nazokat degan fazilatlariga ega bo'lishi tarafdoriman. Nomusni eng so'nggi qurbon deb bilgan o'xshashi yo'q o'zbekni ham o'z yutuq-kamchiliklari bilan yaxshi ko'raman. Juda-juda yaxshi ko'raman!..

Maktub

Qishloqdan xabarlar

Sinfdoshim Qurbonaliga

Assalomu alaykum, do'stim. Sog'-salomatmisan? Hozir o'tirib hisoblasam, Janubiy Koreyaga o'qishga ketganingga ham salkam uch yil bo'libdi. Vaqtning tez oqishini qara. Kechagina maktabdan quvalashib, tortishib qaytdiradi. O'sha har kun o'tadiganimiz eski ko'prikdan keyin shotutlar soyasida o'tirib, onamiz sumkamizga solib bergan nonni suvga ko'tirib yerdik. Ularning ta'mi yodingdami? Yaqinda qishloqqa yo'lim tushib, o'sha tomonlarga qayta bordim — butunlay o'zgarib ketibdi. Ko'priki yangilanibdi, shotutlar kesilib ketgan, o'mida mahalla guzari qad rostlabdi. Yonida kichkina stadioni ham bor. Har kechqurun bizga o'xshagan sinfdoshlar jamoa bo'lib futbol o'yinar ekan. Esginda bo'lsa, o'quvchilik paytimiz qishloqda futbol o'yinash uchun tekis maydon topilmasdi. Na iloj, toki egasi kelib quvib solmaguncha birovlarining bedapoyasida to'p tepardik. Bora-bora ko'pchilik bedapoyasini ham simto'r bilan o'rab ko'ydi. Balki shu sababdir, bilmadim, qishlog'imizdan biror taniqliroq futbolchi chiqmadi. Ilgari qishlog'imizning aksar aholisi chorvachilik va uning oldi-sotdisi bilan shug'ullanardi. Shunga yarasha qishloqdagi

hamma bo'sh yerga chorva uchun ozuqa ekinlar ekilardi. Hovlilarda ham asosan, shu — kaftdekkina yer bo'lsa ham makkajo'xori, beda va tariq. Poliz mahsulotlarining kamyobligidan yoz bo'yi qishloqdan sotuvchi arimas, nima olib kelsa ham peshingacha sotardi-ketardi. Biroq bugun boshqacha. O'sha dalalarni aylanib ko'rsam, poliz ekinining nisbati chorva ozuqasidan ancha ko'p. Bir qishloqshimimiz juda katta maydonga qovun-tarvuz ekibdi. Aniqki, pishsa o'zimizning qishloqdan ortmaydi. Ham arzon bo'ladi. Senga aytmoqchi bo'lgan asosiy yangiliklarimdan biri — bugun qishlog'imiz odamlari orasida maqsad yo'lida birikish havas qilgulik. Hozir eshitgan bo'lsang, "Open budget" mavsumi kechayapti. Qishlog'imiz ham ichki ko'chalarni asfaltlash loyihasi bilan qatnashaypti. Ishonasanmi, umrida jamoatchilikka qo'shilmagan odamlar bugun belni bog'lab, ovoz yig'ish jarayonida eng faollar safida. Qishloqda butkul boshqacha muhit. Ilgari kechqurun ko'chada deyarli hech kim bo'lmadi. Hatto chaqirsang ham chiqmas edi. Bugun esa kechqurunlari qishlog'imiz ko'chasi shaharga o'xshab ketadi. Odamlar iftorlik qilib bo'lgach, ko'chaga chiqib, aynan shu masalada yig'ilishlar qilyapti. Keckhi



majlislarda yuzlab odam to'planarkan. Ilgari buncha odamni osh damlab ham to'plash mushkul edi. Demak, odamlarda xayrixohlik hissi o'syapti, jamiyatdagi hodisalarga ishtirok etgisi kelyapti.

Men "Open budget" jarayonini yaxshi yoki yomon, deb baholash fikridan yiroqman. Asl bahoni jamiyatning o'zi bergay. Menga eng yoqqani — aynan shu jarayon uxlab yotgan tomirlarimizni baholi qudrat uyg'otaypti. Bu yaxshi-ku.

Hozir hammaning tilida "Ovozlarimiz necha bo'ldi?" degan savol. Yoshlar internetni yaxshi tushungani uchun kattalarga hisobot berib turibdi. Nechanchi o'rinda ekanimiz, qo'shni qishloqlarning ovozar soni necha to'lgani — kun tartibidagi masala shu. Raisimiz ovozar soni sal ortda qolganini eshitsa, shu zahoti teleqramdagi guruhlar orqali murojaat qiladi, odamlar ham ortda qolishdan bezovtalanib, darrov yig'ilishni boshlaydi. Yagona maqsad — g'olib bo'lish. Aytishlaricha, faqatgina shuning o'zi bilan to'xtab qolish yo'q. Asfaltlash hal bo'lgandan keyin qishloqqa ichimlik suv keltirish masalasi ko'rib chiqilarkan. Bilasan, hozirgacha odamlar hovlisida 4-5 tonnali hovuz qurib, suv sotib olib, shu hovuzni to'ldiradi va 2-3 oylab ichadi. Uzoq vaqt turib qolgan suvning sog'liqqa zarari ekanini hamma biladi. Quvonarlisi, bu masalaga tuman mutasaddilari ham ijobiy munosabat bildiribdi. Umid qilamanki, qaytib kelguningga qadar bu tashabbus ham amalga oshgan bo'ladi.

To'g'risi, faqatgina yaxshi xabarlarim gapirib, dilni xira qiladiganlarini unutibman. Qishlog'imizda daraxtlar soni yildan yilga kamayib boryapti. Biz mevalarini o'g'irlab yeydiganimiz o'sha olma bog'lari bugun qurib tamom bo'libdi. O'mida kichkina-kichkina ko'chatlar ekilgan, lekin ularning ham parvarishi haminqadarga o'xshaydi. Achinarlisi, shuncha daraxtini kesgan qishloqdoshlarimiz o'miga yansisini ekishda ancha oqsoliqli qilyapti. Qishloqda kunning issig'ida soyalaydigan joy topish muammo bo'lib qolgan. Yaxshiyam daraxtlar kesilishiga moratori joriy qilindi. Aks holda, oqibatni ko'radirik.

Shu o'rinda katta-katta daraxtlar o'miga faqatgina nina barglilar, jumladan, qarag'ay ekilgani ham ta'bi xira qiladi. To'g'risi, nina bargli daraxtlar bizning mintaqa umuman, mos emas, deb hisoblayman. Undan ko'ra, ko'proq mevali daraxtlar ekish yaxshimasmi — ham soyador, ham hosilidan el bahramand bo'ladi. Fikrimga qo'shilsang kerak.

Bizda shunday gaplar, do'stim. Sendan umidimiz katta. Yaxshi o'qib, yetuk mutaxassisga aylanib, qishlog'imizga, tumanimizga, qolaversa, butun xalqimizga foydasi tegadigan inson bo'lishingga ishonaman. Faqatgina maqsadlaring yo'lidan og'ishmasligingni tilayman. To'g'risi, shunday rivojlanish davrida mamlakatimiz uchun sen kabi intiluvchan, yuragida o'ti bor yoshlar yanada ko'proq kerak. Sendan ham xat kutib qolaman. Omon bo'!

Salom bilan do'sting.

Jonibek ALIJONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Publication details including address: "Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM, Bosh muharrir: Salim DONIYOROV, Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1098. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. "Kolorpax" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29. Navbatchesi muharrir: Jonibek Alijonov, Musahhih: Malohat Mingboyeva, Dizayner: Sherzod Mahmudov. Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy. O'ZA yakuni — 00:10 Topshirildi — 00:55.